

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHARIPOVA NAZOKAT SAIDJON QIZI

Xitoy tilidan hujjatlarni tarjima qilish masalasi (ShHTning suv-energetik resurslari masalasiga bagishlangan hujjatlar asosida)
5A120201-Tarjima nazariyasi va amaliyoti (turlari bo'yicha)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:
f.f.n. Nosirova S.

Toshkent-2013

MUNDARIJA:

KIRISH	3
 I bob. Suv-energetik resurslari masalasiga doir ShHT hujjatlarda qolipli konstruksiyalarning klishe o'rnida qo'llanilishi	13
1. Ish yuritish hujjatlarining semantik xususiyatlari.....	14
2.Suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda qolipli konstruksiyalarning semantik xususiyatlari.	22
3.Suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda klishe o'rnida qo'llanuvchi venyan tili elementlari.....	35
I bob boyicha xulosa	41
II 6o6. ShHT hujjatlarini tarjima qilishda semantik komponentlar, formulyarlar masalasi.....	42
1. Hujjatlarda qo'llaniluvchi komponentlarning semantik tahlili.....	44
2. Hujjatlarda qo'llaniluvchi asosiy protokol formulalar.....	50
II bob boyicha xulosa.....	55
 III bob. Hujjatlar matnlarida sinonimiya va tinish belgilari – tarjima jarayoning “dushmanlari” sifatida.....	58
1. Rasmiy hujjatlar matlarda sinonim atamalar va ularni tarjima qilish masalasi.....	58
2.Rasmiy hujjatlar matnlarida tinish belgilar ishlatilishining o'zoga xos xususiyatlari	65
III bob boyicha xulosa.....	70
Xulosa.....	71
Adabiyotlar ro'hati.....	77
Ilova	

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Yurtimizda ekologiyani asrab-avaylash, atrof-muhit ozodaligini asrash masalalariga katta e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekistonning eng katta ekologik muammosi Orol dengizining qurib borishidir. 1960-yildan 1990-yilga qadar Orol dengizining hajmi 66,900 km kv.dan 36,500 km kv.ga qisqargan. 90-yillarning so'ngiga kelib u boshlang'ich hajmining 90 foizini yo'qotdi. Orol dengizining ekologik falokat hududi Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonni qamrab oladi. Ayni vaqtda O'zbekistonda 301 o'simlik va 184 hayvon turi "O'zbekiston Qizil Kitobi"ga kiritilgan. Davlat statistik ma'lumotlariga ko'ra, yurtimizda havo ifloslanishining eng katta ko'rsatkichi Andijon shahriga to'g'ri keladi. Ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun O'zbekiston hukumati bir qator strategik dasturlarni ishlab chiqqan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi atrof-muhit gigienasi bo'yicha milliy harakat dasturi, Biologik rang-baranglikni saqlash bo'yicha Milliy strategiya va Harakat rejasi, Qurg'oqchilik va cho'lga aylanishga qarshi kurash bo'yicha Milliy harakat dasturi, Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha Milliy harakat dasturi kabi bir qator rejalar qabul qilingan bo'lib, ular asosida yurtimiz ekologiyasini asrab-avaylash borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. BMT agentliklari tizimi ham O'zbekistonning tabiiy zahiralarini barqaror rivojlantirish maqsadida atrof-muhitdan foydalanishni samarali boshqarishga va uni muhofaza qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni bir qator loyihalar orqali qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Xususan, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston hukumati ekologik muammolarni hal etishga yo'naltirilgan qator strategik hujjatlarni ishlab chiqqan. 2000-2010-yillarga mo'ljallangan davrda qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash davlat dasturi bu borada muhim amaliy ahamiyatga ega. Ayni maqsad yo'lida ham BMT tizimi agentliklari va boshqa xalqaro tashkilotlar suv zahiralaridan unumli foydalanishda O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Yurtimizda barqaror rivojlanish ko'rsatkichiga ega bo'lish bosh maqsad sifatida belgilangan. Barqaror rivojlanish shunday taraqqiyot yo'li, unda bugunning

manfaatlari yo'lida kelajak avlod ehtiyojlarining qondirilishi xavf ostiga qo'yilmaydi. Demak, atrof-muhitni asrab-avaylash, kelajak avlodlarimiz uchun xavfsiz va zarur sharoitlarga ega yashash tarzini meros qoldirish mamlakatimizning taraqqiyot yo'lida hisobga olinishi zarur bo'lgan muhim masaladir.

Atrof-muhit ifloslanishi hamda natijada iqlimning global tarzda isishiga asosiy sabab tabiiy yoqilg'i zahiralarining katta hajmda iste'mol qilinishidir. Zamonaviy dunyoda inson ishtahasi ochilib borgan sari neft, ko'mir, gaz kabi yoqilg'ilar iste'moliga bo'lgan talab ham oshib bormoqda hamda ular ko'r-ko'rona va tartibsiz ravishda o'zlashtirilib, atrof-muhitga katta ziyon yetkazilmoqda.

Avvalo, mazkur yerosti zahiralaridan bo'shab qolgan konlar mutlaqo yaroqsiz va sog'liq uchun zararli chiqindi yerlarga aylanib qolishi bilan atrof-muhit uchun xavflidir. Yoqilg'ilardan foydalanish oqibatida atmosferaga chiqayotgan issiqxona gazlari yetkazayotgan zarar ko'lami esa undan ham katta. Zavodlardan ko'kka o'rayotgan zaharli tutunlarning aniq hisobini bilish imkonsiz. Kuniga millionlab tonna chiqindilar esa oqar suvlarga qo'shilib, suv havzasi hayvonot olami uchun ham ulkan ofat manbai bo'lib xizmat etmoqda. Ochiq hududlarga tashlanayotgan chiqindilar esa katta-katta yerlarda axlat uyumlarini hosil qilmoqda. Bularning barchasi dunyo ob-havosining me'yordagi darajadan ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Global isish sifatida atalayotgan bu holat inson ertasining bugunidan ko'ra yaxshiroq bo'lishi qiyin ekaniga ishoradir. O'tgan asrda suvga nisbatan bo'lgan talabning oshishi aholi o'sishiga nisbatan ikki barobar yuqori bo'ldi. Hali dunyoda suvsizlik muammosi ochiq ko'zga tashlanmagan bo'lsa-da, lekin dunyo aholisining 2,8 milliardi yoki boshqacha qilib aytganda jami yer yuzi aholisining 40 foizi suv tanqis bo'lgan hududlarda yashaydi. Ayni holat mavjud suv resurslaridan tejab-tergab foydalanishni taqozo etadi. Toza ichimlik suvi borasidagi muammolarga, asosan, Afrika qit'asida yashovchi insonlar ko'proq duch kelmoqda. Bu mintaqada suv resurslarining hududlar o'rtasidagi taqsimotida jiddiy nomutanosiblik bor. Masalan, Shimoliy

Afrikada aholining 92 foizi toza ichimlik suvi iste'mol qilish imkoniyatiga ega bo'lsa, sahro mintaqasidagi Afrika davlatlarida bu ko'rsatkich 60 foizga ham yetmaydi. Haqiqatdan, suv-energetik resurslaridan oqilona foydalanish masalasi dunyoning ko'plab davlatlari halqaro tashkilotlari yig'ilishlari, forumlarida birinchi masala qatorida ko'tariladigan muaamoli masaladir. Shu jumladan Shanghai Hamkorlik Tashkilotining har yilgi yig'ilishlarida ushbu masala dolzarb masala, echimini kutayotgan masala sifatida doimiy tarzda kun tartibiga kiritiladi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi xalqaro munosabatlar yangi bosqichga o'tgani hech kimga sir emas. Albatta ikkala tomon ham bu munosabatlarni mustahkamlashdan manfaatdordir. Bunga misol qilib, 2006-yil mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik Shartnomasining imzolanishi ikki davlat munosabatlarini mustahkamlashda poydevor bo'lib xizmat qildi. Mana 20 yildirki, O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida ko'plab shartnomalar imzolanib kelmoqda. Shu bilan birga O'zbekistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zoliigi bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar serqirra ekanligidan dalolat beradi. Shu kungacha tashkilot doirasida ko'pgina hujjatlar qabul qilingan.

Hozirgi kunda yuz berayotgan globallashuv jarayonida jamiyat hayotining barcha sohalarida turli xil o'zgarishlar, yangiliklar bo'lib o'tmoqda. Albatta bunda milliy til va undagi o'zgarishlar yuksak o'rin tutadi. Sababi jamiyatdagi har bir o'zgarish uning milliy tilida aks etadi. Shu bilan bir qatorda siyosiy, publististik sohalarda kundan-kunga yangi atamalar, klishelar, shiorlar kirib kelmoqda. Shu sababli ham biz quyidagi magistrlik dissertatsiyamizda zamonaviy xitoy tilidagi rasmiy hujjatlarni tarjima qilish, siyosiy nutqlarning va publististika tilining ajralmas qismiga aylangan klishelar, ozlashmalar, umuman olganda hujjatlar leksikasi bilan bog'liq tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini Shanxay Hamkorlik Tashkiloti suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlari misolida tahlil etishga bag'ishladik. 1994 y.

O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida o'zbek va xitoy tillari hamda boshqa soha mutaxassisliklari bo'yicha talabalar almashinuvi yolg'a qo'yilgan. Xitoy tarjimashunosligi maktabini shakllantirishda va rivozhlantirishda shu sohada etuk pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyo'z katta. Ma'lumki mohir tarjimonni yetishtirishda avvalombor insondan o'z ona tilini chuqur bilish, ana undan keyin chet tili, o'rganayotgan tilde so'zlashuvchi millatning o'ziga hos xususiyatlarini, urf-odatlarini, umuman olganda mentaliteti doirasidagi puxta bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi birlamchi va muhimdir. Zero ikki davlatning do'stona aloqalari aynan til o'rganishdan boshlanadi. Semantik, stilistik va gammatik jihatdan tog'ri tarjima qilingan jumla kelishuv-muzokaralarning ijobiy yakun topishiga kafolatdir. Rossiya olimlaridan publististik matnlarda uchraydigan konstruksiyalar T.H.Никитина "Грамматика китайского публистического текста"da, "O'zbekistonda xitoyshunoslik: tarix,hozirgi zamon va kelajak" ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlaridagi maqolalarida alohida tahlilga tortilgan. Klishelar hozirgi kunda xitoy tilining ajralmas va muhim qismi bo'lib, ularning xalqaro siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy, ilmiy va ijtimoiy sohalarga bo'lgan ta'siri o'sib bormoqda. Xitoy ko'pgina xalqaro tashkilotlar a'zosi, shu bilan bir qatorda Shanxay Hamkorlik Tashkilotini asoschilaridan biri sifatida xalqaro sohada faol ish olib bormoqda. Shu ta'kidlab o'tish kerakki, hozirgi kunda bu tashkilot xavfsizlik borasida ko'pgina ishlar qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha asosiy masalaga aylangan suv-energetik resurslari bilan bog'liq masalaga katta e'tibor bermoqda.

O'zbekiston va Xitoy bilan o'zaro manfaatdorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish asosida xitoy tilining, shu jumladan hujjatlarda keng qo'llaniladigan klishelarning, grammatik konstruksiyalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'ylaymizki, rasmiy hujjatlarni tarjima qilish xususiyatlariga bag'ishlangan mazkur tadqiqot ishimiz materiallari kelajakda tarjimashunoslikka bag'ishlangan ko'plab darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Har bir sohada o'z atama, klishelari bo'lgani kabi rasmiy va siyosiy sohada ham mavjud. Ishning ob'yektini hozirgi zamon xitoy tili rasmiy soha hujjatlari, aynan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining suv-energetik resurslari masalasiga bag'ishlangan hujjatlar xususiyatlari va ularni tarjima qilish bilan bog'liq masalalar tashkil etgan.

ShHT suv-energetik resurslari masalasiga bag'ishlangan hujjatlardagi klishelar, grammatik konstruksiyalar, atamalar sinonimiyasi, tarjima jarayonida tinish belgilarining o'rni va ahamiyati masalalari tadqiqotning predmetini tashkil etdi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlar asosidagi ushbu tadqiqot ishimizning maqsadi zamonaviy xitoy tili hujjatlarida ko'p uchraydigan klishelar, klishe xususiyatiga ega qoliqli konstruksiyalar ishlatilish xususiyatlari, leksik-semantik jihatlarini o'rganish, hujjatlarda keng ishlatiladigan ayrim sinonim atamalarda to'g'ri va o'rnida qo'llash, tarjima qilish ko'nikmalarini rivozhlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ilmiy ishda quyidagi asosiy vazifalar amalga oshirilishi nazarda tutilgan :

- 1) hozirgi zamon xitoy tilida rasmiy, siyosiy sohada klishelar va klishe xususiyatiga ega qoliqli konstruksiyalarni leksik-semantik tahlil qilish;
- 2) suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda klishe o'rnida qo'llanuvchi venyan tili elementlarini semantik tahlili;
- 3) suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda uchraydigan sinonim terminlarning tahlilini amalga oshirish;
- 4) xitoy tilidagi hujjatlarni tarjima qilishda semantic komponentlar,

formulyarlar hususiyatlarini tahlil etib, ularni tarjima jarayonida to'q'ri qo'llashga qaratilgan tavsiyalarni ishlab chiqis;

- 5) tarjima jarayonida matnda tinish belgilarning o'rni va ahamiyatini yoritish.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. O'zbek va Xitoy xalqlarining o'zaro aloqalar tarixi bir necha ming yilliklar qa'ridan boshlanadi. Min (1368-1644y.y) sulolasining vakili ilk bor Samarqandga diplomatik missiya bilan tashrif buyurishi Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari o'sha davrlardayoq siyosiy va iqtisodiy aloqalarni o'rnatishga harakat qilishganidan dalolatdir.¹ Buyuk ipak yo'lining shakllanishi (mil. av.II –a. – mil.15-a) Markaziy Osiyo va Xitoy xalqlari o'rtasida diplomatik, iqtisodiy aloqalarning rivoji uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan. O'zbekiston mustaqillika erishgach, ushbu aloqalar hozirgi zamon talablariga mos holda rivojlanib bormoqda.

Xitoy va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida 1991 yil 2 yanvarda diplomatik aloqalar o'rnatilganidan beri ushbu sohada ishlatiladigan rasmiy hujjatlar majmuasi shakllana boshladi. Xitoy tili rasmiy hujjatlarni tarjima qilish masalasiga bag'ishlangan lingvistik ishlarni deyarli yo'q desa bo'ladi. Mavjud bo'lgan ishlarda esa rasmiy hujjatlar tarixiy jihatdan va stilistik uslub tarafidan qisman o'rganilgan, masalan: 2004 yili nashr etilgan A Bilingual Study of Diplomatic Documents / Series of Huang Jinqi's Monographs on Diplomacy / Book I, Book II. World Affairs Press 2004; What is Diplomacy - A Bilingual Course/ Series of Huang Jinqi's Monographs on Diplomacy / World Affairs Press 2004 (Xuan Dingchining "Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik hujjatlari" va "Diplomatiya asoslari" kitoblari); 番新明。 外事使用文书大全。 - 北京：世界知识出版社，1994。 (Fan Sinmingning "Xitoy diplomatik hujjatlari" - Pekin: "Shijiechubanshe" nashriyoti, 1994) kitoblari ma'lum. Ko'rsatib o'tilgan

¹ 番新明。 外事使用文书大全。 - 北京：世界知识出版社，1994。 - 1 页。 (范 辛 明 明 。 希 托 伊 外 交 使 用 文 书 大 全 。 - 北 京 ： 世 界 知 识 出 版 社 ， 1994。 - 1 页。)

manbalarda rasmiy hujjatlarning faqat tarixiy kelib chiqishi, tuzilishi hususiyatlari o'rganilgan.

Lekin, umuman olganda, boshqa tillarda hujjat tuzilishi, tarjima hususiyatlarini tahliliga bag'ishlangan ishlar soni anchagina. Masalan: D.S. Kulmamatovning “Среднеазиатские дипломатические документы и их русские переводы в XVII в.в. (Грамоты, челобитные)”, A.A.Abdullayevaning “Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков)”, deb nomlangan ilmiy tadqiqot ishlari; X.G.Gulamovning “Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII в.”; I.T.Zografning “Монгольско – китайская интерференция (язык монгольской канцелярии в Китае)”; X.S.Muxitdinova, A.A.Abdullayevalarning “Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалар тури”; L.V.Rahmaninning “Стилистика деловой речи и редактирование служебных документов ”; F.P.Sergeyevning “Лексика сферы международных отношений”; Q.P.Sodiqovning “Eski uyg‘ur yozuvi (elchilardan yuborilgan yorliqlar)” va boshka shu kabi ilmiy ishlar mavjud. Ushbu ilmiy ishlarning aksariyat qismi rasmiy til leksikasining diaxronik tahliliga bag'ishlangan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ishlardan A.A.Abdullayevaning “Расмий услубнинг дипломатик yozishmalar turi” va “ Лексика сферы международных отношений” deb nomlangan ilmiy ishi rasmiy til leksikasining sinxronik tahlilini ham o'z ichiga qamrab olgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlardan farqli o'laroq “Xitoy tilidagi hujjatlarni tarjima qilish masalasi (ShHTning suv-energetik resurslari masalasiga bag'ishlangan hujjatlar asosida)”deb nomlangan ilmiy tadqiqotda ilk bora xitoy tilidagi hujjatlar leksikasi o'rganilib, ularni tarjima qilish masalasi bilan bog'liq tavsiyalarni ishlab chiqish, to'g'ri tarjima qilish ko'nikmasini rivojlantirish masalasiga ahamiyat berilgan.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Tadqiqotga manba sifatida “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики,

водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения ” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года) , Душанбе Ирфон, 2011 , 黄金祺 “外交文献书教程”世界出版社, 2004, internet saytlar <http://bc-sco.org>, <http://www.sectesco.org>, Т.Н.Никитина “Грамматика китайского публицистического текста ”, Санкт-Петербург , 2007, Nosirova Saodat, “Xitoy tilining ijtimoiy-siyosiy va diplomatik terminologiyasi” , Toshkent , “Yangi asr avlodi” , 2011, A Bilingual Study of Diplomatic Documents / Series of Huang Jinqi’s Monographs on Diplomacy / Book I, Book II. World Affairs Press 2004; What is Diplomacy - A Bilingual Course/ Series of Huang Jinqi’s Monographs on Diplomacy / World Affairs Press 2004 (Xuan Dingchining “Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik hujjatlari” va “Diplomatiya asoslari” kitoblari); Joan R.Wood Jean Serres. Diplomatic Ceremonial and Protocol. New York, 1999. (Djon Vud va Djen Serreslarning “Diplomatik seremonial va protokol ” kitobi); 番新明。外事使用文书大全。- 北京：世界知识出版社 , 1994 (Fan Sinming. Xitoy diplomatik xujjatlari. – Pekin: “Shijiechubanshe” nashriyoti, 1994.); Chinese – English Vocabulary of Foreign Affairs (Xitoycha-inglizcha diplomatik atamalar lug‘ati) kabi kitoblar asosiy manba sifatida olindi. Original manba sifatida O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, Xitoyning O‘zbekistondagi elchixonasi, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Pekindagi Kotibiyati tomonidan taqdim etilgan rasmiy hujjatlardan ham keng foydalanildi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublar. Mavzuga oid to‘plangan materiallar hozirgi zamon tilshunoslik fanida keng qo‘llanilayotgan qiyosiy, struktural, distributiv medolar, konstruktiv, diaxronik va sinxronik, tavsifiy, tahliliy, komponent hamda statistik va interpretatsiya metodlari yordamida tahlil etildi. Sistematika va umumiy konseptual yondoshuvlar ham ushbu ishda katta o‘rin egalladi. Ba’zi holatlarda, mavzuning interaktiv xususiyatlaridan kelib chiqib, siyosatshunoslika oid bo‘lgan umumiy metodlar ham qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Ishda ilk marotaba xitoy tili rasmiy hujjatlari leksikasi tahliliy va tavsifiy usulda o'rganildi. Dissertatsiya materiallaridan umumiy hujjat yuritish sohasida, hususan O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar va investisiyalar vazirligi, Savdo va sanoat Palatasi, O'zbekiston Respublikasining XXRdagi elchixona va boshqa vakolatxonalarining, O'zbekiston Respublikasida va Xitoy Xalq Respublikasida joylashgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti idoralarining faoliyatida, xitoy tili leksikologiyasi bo'yicha olib boriladigan kurslarda; xitoy tilining leksikologiyasi va leksikasiga oid mahsus kurslarda; o'zbek, rus va xitoy tillarini o'rgatish jarayonlarida, qo'llanma hamda darsliklar tuzishda, ayniqsa, tarjimashunoslik sohasiga oid turli xil o'quv qo'llanmalari hamda sharqshunos filologlar uchun mahsus kurslar tayyorlashda, yangi lug'atlar tuzishda, hujjatlar majmuasini ishlab chiqishda, ommaviy axborot vositalarida va boshqa sohalarda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Birinchi marta xitoy tili rasmiy hujjatlari leksikasini tarjima qilish masalasi ilmiy muammo sifatida ko'tarildi, ShHTning suv-energetik resurslari masalasiga bagishlangan hujjatlar misolida hujjatlarda keng qo'llaniladigan klishelar va ularni to'g'ri tarjima qilish bilan bo'g'liq masalalar, hujjatlarda rasmiy atamalar sinonimiyasi, ahamiyati ikkilamchidek tuyulgan tinish belgilar masalasi lingvistik jihatdan tahlili amalga oshirildi, xitoy tilidagi rasmiy hujjatlarni to'g'ri tarjima qilish bilan bo'g'liq tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Har bir bob o'z mazmuni va mohiyatidan kelib chiqqan holda kichikroq qismlarga bo'lingan. Dissertatsiyada tadqiqot natijalariga aloqador bo'lgan sxemalardan foydalanilgan. Shuningdek, dissertatsiyada xitoycha misollar transliteratsiya holatida lotin alifbosida berilgan.

Birinchi bob “Suv-energetik resurslari masalasiga doir ShHT hujjatlarida qoliqli konstruksiyalarning klishe o’rnida qo’llanilishi” deb nomlangan va o’z ichiga “Ish yuritish hujjatlarining semantik xususiyatlari”, “Suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda qoliqli konstruksiyalarning semantik xususiyatlari” va “Suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda klishe o’rnida qo’llanuvchi venyan tili elementlari” deb nomlangan kichik bo’limlarni qamrab olgan.

Ikkinshi bob “ShHT hujjatlarni tarjima qilishda semantik komponentlar, formulyalar masalasi ” deb nomlangan va o’z ichiga “Hujjatlarda qo’llaniluvchi komponentlarning semantik tahlili”, “Hujjatlarda qo’llaniluvchi asosiy protokol formulalar” deb nomlangan ikki kichik bo’limni olgan.

Uchinchi bob “Hujjatlar matnlarida sinonimiya va tinish belgilari – tarjima jarayoning “dushmanlari” sifatida” deb nomlangan bo’lib, o’z ichiga “Rasmiy hujjatlar matlarda sinonim atamalar va ularni tarjima qilish masalasi” hamda “Rasmiy hujjatlar matnlarida tinish belgilar ishlatilishining o’ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikki bo’limdan iborat. Har bir bob yakunida qisqacha hulosalar keltirilgan.

I BOB. ShHTning SUV-ENERGETIK RESURSLARI MASALASIGA DOIR ShHT HUJJATLARDA QOLIPLI KONSTRUKSIYALARNING KLISHE O'RNIDA QO'LLANILISHI

Ushbu bobda hujjatlarda ko'p qo'llaniladigan klishelar, klishе xususiyatiga ega qolipli konstruksiyalar, siyosiy shiorlarni tahlil qilib chiqdik. Klishe fransuz tilidagi “cliché”, ”clicher”so'zidan olingan bo'lib, “bosib iz qoldirmoq” poligr. qog'ozga bosish uchun yog'och yoki toshga tushirilgan bo'rtma harf, surat, rasm, plan va shu kabilar² degan ma'noni bildiradi. Lingvistika sohasida esa aynan qolipga solingan so'z birikmalari, ma'lum bir vaziyatda qo'llanuvchi umumiy modelga ega so'zlardir, gaplardir. Xitoy tiliga klishе 陈词滥调 chencilandiao deb tarjima qilinadi. Hozirgi kunda klishelarni barcha sohalarda uchratish mumkin. Misol uchun, psixologik sohaga doir yoki adabiyotda uchraydigan klishelar. Biroq biz siyosiy sohaga oid ko'p uchraydigan klishelarni Shanxay Hamkorlik Tashkiloti suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlar asosida tahlil qilib chiqamiz. Siyosiy klishelar sifatida qolip so'z birikmalari, klishе xususiyatiga ega qoliplar publistikada, jurnalistikada, siyosiy hujjatlarda, siyosat arboblari nutqida qo'llaniladi. Ularni to'g'ri tushunish uchun esa aniq matnni bilish kerak. Chunki ba'zi hollarda klishelarni ritorik yoki vaziyatdan kelib chiqib har xil holatlarda qo'llash ham kuzatiladi. Shu sababli ham quyida biz ba'zi klishelarni tahlil qilib chiqdik. Ushbu tadqiqot ishimizda “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения ” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года) , internet saytlar <http://bc-sco.org>, <http://www.sectsco.org>, 黄金祺 “外交文献书教程” ,

² O'zbek tilining izohli lug'ati. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 5jildli. Toshkent 2006-2008. 3-jild. B-249

Т.Н.Никитина “Грамматика китайского публицистического текста ” kabi adabiyotlardan foydalanildi.

1. Ish yuritish hujjatlarining semantik xususiyatlari

Boshqaruv hujjatlarini bir-biri bilan uzviy bog'liqligi barcha birlashmalarni administrativ xo'jalik faoliyatini yuritishdagi asosiy ta'minlanish omili bo'lib xizmat qiladi. Bu tuzumlarni tarkibi va shakli quyidagi omillarga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq bo'lib ,ular yuzaga keladigan muammo va savollarni yechimini tegishli qonun va qoidalarga amal qilgan holda o'zining xizmat doirasi hajmiga qarab yuritiladi.

Ish yuritish yoki boshqaruvni hujjatlar orqali ta'minlash deganda ish yuritish faoliyatini hujjatlar bilan ta'minlash va turli rasmiy hujjatlar orqali kelgusi ishlarni tashkillashtirishga aytiladi. Hujjatlashtirish ish yuritishni eng asosiy qismi bo'lib, u hujjatlarni bitish jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langandir. "Hujjat yuritish" tushunchasi o'z navbatida hujjatlarni ro'yxatga olish va ularni harakati bilan bog'liq bo'lgan barcha savollarni o'z ichiga oladi. Ish yuritish hujjatlarni tuzish, tashkillashtirish sistemasini (tizimini)doimiy ishlashini qo'llab turish va ularni saqlashga oid qismi arxiv ishi deb yuritiladi.

Insonlarni boshqaruv sohasidagi faoliyati doimo turli hujjatlarni tuzish va ularni xarakatini muntazam ravishda olib borish bilan bog'liq bo'ladi Shuning uchun xozirgi kunda ish yuritishni boshqacha qilib aytganda boshqaruvni hujjatlar bilan ta'minlash deb yuritsa ham bo'ladi.

Ish yuritishni struktur bo'linmalarini tashkillashtirishga javobgar amaldor shaxs amaldagi qonun-qoidalarga amal qilishi hamda ish jarayonini o'rnatilgan qoidalarga asosan boshqarish ko'pincha birlashma yoki boshqarma raxbari zimmasida bo'ladi.

Hujjatli boshqaruv tizimining murakkabligi o'zaro munosabatlarning maxsusligiga, masalan, o'zaro munosabatlarni xarakter va hajmiga yuqori tashkilotlarni tuzumlarni aniq tashkillanishiga, idoralarni-ishbilarmon xamkorlar, shu tashkilotni hodimlari va boshqa jismoniy shaxslarga bog'liq .

Ish yuritish jarayonini qo'llash asosan amaldor orqali taminlanadi va uning zimmasiga shu birlashma yoki boshqarmani ish jarayoniga taalluqli hujjatlarni o'z vaqtida ro'yxatga olish, tegishli qoidalarga asosan saqlash va bu hujjatlarni vaqtida amal qilinishini ta'minlashdek vazifa yuklatiladi.

Birlashma yoki boshqarmaning materiallarini ro'yxati tashkiliy taqsimot hujjatlar tizimiga kiritilgan bo'lib, ular boshqaruv faoliyatini nazoratidagi klassifikatsiya organi orqali tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Hujjatlar turlari bo'yicha xilma-xil va miqdoran juda ko'pdir. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatleri ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar oldiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o'ziga xos lisoniy xususiyat va sifatlar bilan belgilanadi. Bu xususiyat va sifatleri har taraflama va chuqur tasavvur qilmasdan turib, mukammal hujjatchilikni yaratish mumkin emas. Shuning uchun bu o'rinda hujjatlar tasnifi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlariga ko'ra tasnif qilinadi. Tasniflashda garchi mutlaqo bir hil guruhlashtirish mavjud bo'lmasada, har qalay bir qadar yagonalashgan guruhlashtirish bor.

Hujjatshunoslikdagi ish yuritishdagi hujjatlar ana shu an'anaga ko'ra eng avvalo yaratilish o'rniga ko'ra tasnif qilinadi va bu jixatdan ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi. **Ichki** hujjatlar ayni muassasaning o'zida tuziladigan va shu muassasa ichida foydalaniladigan hujjatlardir, muayyan muassasaga boshqa tashkilot va ayrim shaxslardan keladiganlari esa tashqi hujjatlardir.

Hujjatlar mazmuniga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. Sodda hujjatlar-muayyan bir masalani o'z ichiga oladi.
2. Murakkab hujjatlar-ikki yoki undan ortiq masalani o'z ichiga oladi.

Mazmun bayonining shakli jixatidan xususiy (individual), namunali (tipovoy) va qolipli (trafaretli) hujjatlar farqlanadi. Matnning o'ziga hosligi, betakrorligi, xamisha ham bir andazada bo'lmasligi xususiy hujjatlarning asosiy belgilaridir (masalan, xizmat yozishmalari va shu kabilar). Bunday hujjatlarda ham

muayyan doimiy tarkib mavjud bo'lsada, bevosita mazmun bayoni bir qadar erkin bo'ladi. Namunali hujjatlar boshqaruvning muayyan bir xil vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z ichiga oladi. Qolipli hujjatlar, odatda oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi, bunday hujjatlarda ikki turli axborot aks etadi, yani o'zgarmas (oldindan tayyor bosma matnda ifodalangan) va o'zgaruvchi (hujjatni tuzish paytida kiritiladi); shuning uchun bu tur hujjatlarga nisbatan ko'pincha "yozmoq"emas, balki "to'ldirmoq" so'zi ishlatiladi. Hujjatlarning qolipli turlarini kengaytirish hujjat matnlarini bir xillikka olib kelish va hujjat tayyorlash uchun ketadigan vaqt hamda mehnatni anchagina tejash imkoniyatini beradi. Qolipli hujjatlarga ish haqi yoki yashash joyi haqidagi ma'lumotnomalar, ayrim dalolatnomalar, xizmat safarlari, guvoxnomalari va boshqa ko'plab hujjatlar misol bo'ladi.

Hujjatlar tegishlilik jihatiga ko'ra, xizmat yoki rasmiy hujjatlar va shaxsiy hujjatlarga ajratiladi. Xizmat hujjatlari tayyorlanishiga ko'ra muassasa yoki mansabdor shaxslarga tegishli bo'lsa shaxsiy hujjatlar yakka shaxslar tomonidan yozilib, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladi (masalan,shaxsiy ariza,shikoyat va x.k).

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya muhim. Bu jixatiga ko'ra hujjatlar quyidagicha tasniflanadi: qoralama, asl nusxa, nusxa, ikkinchi nusxa (dublikat), ko'chirma. Ko'pgina hujjatlar avval **qoralama** nusxada tayyorlanadi, bu hujjat muallifini qo'l yozma yoki bosma nusxasidir. Bu nusxa tuzatilib, qayta ko'chirilishi mumkin. Aytish kerekki, qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas. **Asl nusxa** har qanday hujjatning asli, birinchi rasmiy nusxasidir. Asl nusxaning aynan qayta ko'chirilgan shakli **nusxa** deb yuritiladi, odatda nusxaning o'ng tomonidagi yuqoridagi burchagiga "Nusxa" degan belgi qo'yiladi.

Hujjatchilikda aynan (faksimil) va erkin nusxalar ham farqlanadi. Aynan nusxa asl nusxaning barcha xususiyatlarini—hujjat zaruriy qismlarining joylashishi,

mavjud shakliy belgilar (gerb, yumaloq muhr, to'rtburchak muhr, nishon kabi), matndagi bosma, yozma harf shakllari va shu kabilarni aniq va to'liq aks ettiradi, masalan kserokopiyani shu tur hujjatlar qatoriga kiritish mumkin. Erkin nusxada esa hujjatdagi axborot to'laligicha ifodalansa-da, bu nusxa tashqi xususiyatlar jixatidan bevosita muvofiq kelmaydi, yani erkin nusxada asl nusxadagi muxr o'rniga "muhr" deb, imzo o'rniga "imzo" deb, gerb o'rniga "gerb" deb yozib qo'yiladi va x.k. Ba'zan muayyan hujjatga to'laligicha emas, balki uning bir qismiga extiyoj tug'iladi. Bunday hollarda hujjatdan nusxa emas, balki **ko'chirma** olinadi (masalan,majlis bayonidan ko'chirma, buyuruqdan ko'chirma va x.k). Nusxa va ko'chirmalar, albatta notarius, kadrlar bo'limi va shu kabilar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangan taqdirdagina huquqiy kuchga ega bo'ladi. Asl nusxa yo'qolgan hollarda hujjatning **ikkinchi** nusxasi (dublikati)beriladi, ikkinchi nusxa asl nusxa bilan bir xil huquqiy kuchga egadir. Mamuriy —boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko'ra hujjatlar xozirgi kunda, asosan, quyidagicha tasniflanadi: tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma'lumotsimon -axborot hujjatlari, xizmat yozishmalari.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va hodimlari, boshqaruv jarayonining borishida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi. Nizomlar, yo'riqnomalar,majlis bayonlari, shartnomalar ana shunday tashkiliy hujjatlar sirasiga kiradi.

Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma,farmoyish kabilar kiradi.

Ma'lumotsimon—axborot hujjatlari ancha katta guruhni tashkil qiladi, bu hujjatlarning ish yuritish jarayonidagi ishtiroki ham juda faol. Bu guruh dalolatnoma, ma'lumotnoma, ariza, tushuntirish xati, xisobot, ishonchnoma, tavsifnoma kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmat yozishmalari mazmunan xilma-xil bo'ladi. Ularda muassasa faoliyatining turli masalalari bilan bog'liq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar aks ettiriladi. Bu ma'noda xizmat yoziashmalari hujjatlarning yuqorida

ko'rsatilgan har uch guruhi bilan ham aloqadordir, ularning muayyan bir guruhiga xizmat hujjatlarini kiritish shuning uchun ham maqsadga muvofiq emas. Shularni hisobga olib, hizmat yozishmalari hozirgi zamon hujjatshunosligida mazkur guruhlardan keyin to'rtinchi alohida guruh sifatida tasniflangan va bu mantiqan o'rinli.

Hujjatlarni tayyorlash umumiy qoidalarining asosiylari Davlat yagona nusxasida qayt etilgan. Unga ko'ra, tashkiliy-farmoyish hujjatchiligi, yani tashkiliy, farmoyish, ma'lumotsimon-axborot hujjatlari va xizmat yozishmalari zaruriy qismlar (rekvezitlar)ni o'z ichiga olmog'i lozim. Mazkur Davlat yagona nusxasida tashkiliy-farmoyish hujjatlari zaruriy qismlarining quyidagi to'liq ro'yxati belgilangan:

1. Davlat gerbi;
2. tashkilot yoki korxonaning alomati (emblemasi);
3. mukofot tasviri;
4. korxona va tashkilotlarning xos raqami (kodi);
5. boshqaruv hujjatchilik shaklining xos raqami;
6. vazirlik yoki idoraning nomi;
7. muassasa, tashkilot yoki korxonaning nomi;
8. tarkibiy tarmoqning nomi;
9. aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), telefon raqami, faks raqami, bankdagi xisob-kitob raqami;
10. hujjat turining nomi;
11. sana;
12. shartli raqam;
13. keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola;
14. tuzilgan yoki nashr qilingan joyi;
15. hujjatdan foydalanishni cheklovchi belgi ("maxfiy"V"xizmat doirasida foydalanish uchun " kabi);
16. hujjatni oluvchi (adresat);
17. tasdiqlash ustxati;

- 18.munosabat belgisi (rezolyutsiya);
- 19.matn sarlavhasi;
- 20.nazorat haqidagi qayd;
- 21.matn;
- 22.ilova mavjudligi haqidagi qayd;
- 23.imzo;
- 24.kelishuv ustxati;
- 25.rozilik belgisi (viza);
- 26.muhr;
- 27.nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd;
- 28.ijrochining familiyasi va telefon raqami;
- 29.hujjatning bajarilganligi va uni hujjat yig'ma jildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd;
- 30.hujjatdagi ma'lumotlarni bosma ko'chirilganligi haqidagi qayd;
- 31.hujjatning kelib tushganligi haqidagi qayd .

Hujjatning har bir turi mazkur zaruriy qismlarning barchasini o'z ichiga olmaydi. Hujjatning muayyan turiga muvofiq ravshda bu zaruriy qismlarning ayrim bir turkumi huquqiy talablarni taminlash darajasida qo'llanadi. Shu narsa ham muhimki,ayni zaruriy qismlarning hujjatda joylashishida qat'iy tartib mavjud. Zaruriy qismlarning joylashishidagi qat'iy ketma-ketlik hujjatning huquqiy kuchini ta'minlash, hujjatni zudlik bilan ishlash, bajarish, undan osonlik bilan foydalanish uchun muxim.

Mazkur 31 ta zaruriy qismning 10 tachasi nisbatan ko'p qo'llanadi, shuning uchun ularni asosiy zaruriy qismlar deb ham yuritiladi. Ular hujjat muallifi (muassasa nomi yoki shaxsiy hujjatda imzo qo'yuvchi shaxs), hujjat turining nomi, sarlavha, hujjat oluvchi (adresat), kelishuv va rozilik belgilari, matn, tasdiqlash, imzo, muhr, ilova mavjudligi haqidagi qaydlardir.

Ariza. Muayyan muassasa yoki mansabdor shaxs nomiga biror iltimos, taklif yoki shikoyat mazmuniga yoziladigan rasmiy hujjatdir. Ariza asosan qo'lda yoziladi va uning mazmuni erkin bay on qilinadi.

Bildirishnoma. Muayyan muassasa yoki tashkilot raxbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muxim masalalar yuzasidan yoki yuqori idora, mansabdor shaxsga biron-bir voqea va hodisa haqida habardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan mufassal yozma axborotdir. Bildirishnomalarda voqea - hodisalarni sanash bilan birga, ularni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinadi va tegishli omillar tahlil qilinadi va tegishli xulosalar qilinib, takliflar beriladi. Bildirishnoma tayyorlayotgan shaxsning xulosa va takliflari aniq, ravshan va ishonarli bo'lishi kerak.

Buyruq, farmoyish, ko'rsatma. Buyruq-davlat boshqaruv organi raxbarlarining, muassasa va korxona boshliqlarining yakka xokimligiga asoslangan huquqiy hujjat bo'lib, muayyan muassasa yoki korxona oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni ham qilish maqsadida qo'llaniladi. Buyruqlar katta ahamiyatga ega bo'lgan hujjat hisoblanib, asosiy faoliyatga oidlari doimiy, kadrlarning shaxsiy tarkibiga oid buyruqlar esa 40 yilgacha alohida tartib raqam ostida saqlanadi.

Farmoyish. Muassasa ma'muriyati (direktor, uning o'rinbosarlari, bosh muxandis, uning o'rinbosarlari), shuningdek, bo'limlar raxbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda, farmoyishlarda xarakat muddati cheklangan bo'lib, uning kuchi bo'limlarning tor doirasiga ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taaluqli bo'lib, faqat buyruqdan farqli, kirish qismida "tavsiya qilaman" yoki "ruxsat beraman" kabi iboralar ishlatiladi.

Ko'rsatma. Idoralarda xabarsifat metodik tushdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yoriqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjat hisoblanadi.

Guvoxnoma. Muayan shaxsning xizmat va boshqa xolatlarini, shuningdek biror ishga (masalan taftish o'tkazishga) vakolatini ko'rsatuvchi hujjat. Har bir ishga qabul qilingan kishi kadrlar bo'limi tomonidan guvoxnoma olib, yonida olib yurish, yillar davomida qayd qilish uchun qulay daftarcha xolida bo'ladi.

Dalolatnoma. Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron-bir bo'lgan voqea, hodisa, ish-xarakatni yoki mavjud xolatni tasdiqlash, unga

guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat bo'lib, asosiy maqsadi sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud xolatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir.

Ishonchnoma. Muavyan muassasa yoki ayrim shaxs nomidan bildiradigan yozma vakolatni hujjat bo'lib, mazmuniga ko'ra, mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy buyum boyliklarini olish, sud idoralarida ish olib boorish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi. Ayrim xollarda (masalan, kooperativ yoki ijtimoiy mulkni boshqarishda) ishonchnoma qonun talabiga ko'ra notarial tasdiqdan o'tishi zarur bo'ladi, shuning uchun ishonchnomaning zaruriy qismlari aniq, buzilmasdan, tuzatishlarsiz rasmiylashtirilish kerak.

Yo'riqnoma, nizam. Yo'riqnoma-qonun yoki boshqa normativ hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjat bo'lib, tashkiliy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa maxsus faoliyat tomonlari hususida tartib-qoida o'rnatish maqsadida davlat boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi va "lozim", "kerak" "zarur", "yo'l qo'yilmaydi", "mumkin emas" kabi so'zlar qo'llaniladi.

Nizom. Muassasa yoki uning tarkibiy bo'linmalari tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibotini belgilaydigan huquqiy hujjatdir. Raxbarlar tomonidan tuziladi va raxbar farmoyishi bilan yoki tasdiqlash ustxati (grif) qo'yish bilan kuchga kiradi.

Ustav. Muayyan munosabat doirasidagi faoliyat yoki biror davlat organi, muassasaning tizilishi vazifasini yo'llantirib turadigan asosiy va qoidalar majmui bo'lib, normative ahamiyatga ega va nizomga nisbatan keng tushunchadir.

Majlis bavoni. Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarni borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, sqiq holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat bo'lib, doimiy kotib, yoki yig'in jarayonida saylangan kotib uni yozadi. Bu yozuvlarda o'z aksini topgan axborotlarni aniqligi uchun butun ma'suliyat va javobgarlik majlis raisi va kotib zimmasiga yuklatiladi, chunki u voqelikning o'rni, vaqti va xolati haqida ma'lumot berish

bilan birgalikda, qarorlarni to'g'ri qabul qilinganligi tekshirish va uning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi.

Majlis bayonidan ko'chirma. Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chirmalar rasmiylashtiriladi va imzo bilan tasdiqlanadi.

Ma'lumotnoma. Bo'lgan voqea yoki mavjud holatlarni bildirish-axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjat bo'lib, so'ralayotgan yoki iltimos qilinayotgan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi. Mazmuniga ko'ra xizmat ma'lumotnomasi muassasa faoliyatiga doir voqea-hodi salami rasmiy aks ettirib, ifodaladsa, shaxsiy ma'lumotnomalar grajdanlaming turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqea-xodisalar va xolatlarni tasdiqlab beradigan, talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjat hisoblanadi.

2. Suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda qolipli konstruksiyalarning semantik xususiyatlari

Hech kimga sir emaski, mana 20 yildan beri O'zbekiston Respublikasi va XXR bilan rasmiy sohada katta ishlar olib borilmoqda va bu borada ko'plab hujjatlar imzolangan. Bu hujjatlarda asosan e'tibor xavfsizlikni ta'minlashga, suv-energetik resurslardan oqilona foydalanish va hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. XX asr xitoy tilining leksik lug'atining boyishi, grammatika qatlamida yangi o'zgarishlar bevosita rasmiy hujjatlar tilida o'z aksini topishi, tarjimonlarning aynan ushbu til xususiyatlariga kelganda boshi berk ko'chaga kirib qolishlari – konstruksiylarning nihoyatda rang-barangligi va ko'pligi, sinonimiyaning keng rivojlanganligi - bizni shu sohada qo'llaniladigan qolipli konstruksiylar, klishe xususiyatiga ega konstruksiylarni semantik xususiyatini tahlilga tortishimizga sabab bo'ldi. Quyida biz XXR zamonaviy hujjatlarda, rasmiy tilida eng ko'p qo'llaniladigan qolipli konstruksiylarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Ushbu bo'limda tahlilga 32 ta konstruksiya tortildi. Ular quyidagi semantik guruhlar bo'yicha taqsimlandi. Ular: 1) o'rin-joyini ifodalovchi qolipli

konstruksiylar; 2) vaqtni ifodalovchi qolipli konstruksiylar;3) qiyosiy qolipli konstruksiylar.

Quyida biz ushbu semantik guruhlarini birma –bir tahlil qilib chiqamiz.

O‘rin-joy ma’nosini ifodalovchi konstruksiylar.

在.....下，在.....中，在.....上，在.....内，在.....里 old ko‘makchi va ko‘makchi yordamida yasalgan klishe xususiyatiga ega qolipli konstruksiylar

在.....下 *zai...xia* konstruksiyasi.

Ushbu konstruksiyaning mazmuniga ko‘ra, gapning kesimi va boshqa shart bo‘lgan qism (element)lar tavsiflayotgan fakt 在.....下 *zai...xia* konstruksiyasida ko‘rsatilgan fakt yoki holat tufayli, ta’siri yoki sharti ostida bo‘lgan yoki bo‘lmaganligini ko‘rsatadi.³

Mazkur konstruksiyaning 在.....下 *zai...xia* ko‘makchisi oldida kelgan asosiy so‘z sifatida ko‘pincha harakat nomi (fe‘ldan yasalgan ot) keladi. Odatda bu konstruksiya old qo‘makchili iboralar bilan tarjima qilinib,klishe xususiyatiga ega konstruksiylar deyiladi:

在.....影响下 *zai...ying xiang xia-* ta’sir ostida

在.....领导下 *zai...ling dao xia-* rahbarlik ostida

在.....压迫下 *zai...ya po xia-* zulm ostida

在.....支持下 *zai...zhi chi xia -* ko‘magida

在.....帮助下 *zai...bang zhu xia-* yordamida

在.....号召下 *zai...hao zhao xia-* da’vatiga ko‘ra

在.....配合下 *zai...pei he xia-* o‘zaro ta’sirda

³Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публицистического текста», Санкт-Петербург ,2007 .-222б.

Quyida klishe xususiyatiga ega konstruksiyalar qatnashgan gaplarni ko'rib chiqamiz:

在经济全球化背景下，上合地区处在现代化改造与发展阶段，更需要一大批有专业投能人才的支撑⁴。

Zai jing ji quan qiu hua bei jing xia, shang he di qu chu zai xian dai hua gai zao yu fa zhan jia duan, geng xu yao yi da pi you zhuan ye tou neng ren cai de zhi cheng.

Iqtisodiy globalizatsiya jarayonida Shanghai Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar regionida zamonaviylashtirish va darajasini ko'tarishda mutaxassisli kadrlarni qo'llab-quvvatlash zarurdir.

Ba'zi holatlarda 在.....下 konstruksiyasini tarjima qilish qiyin bo'ladi, chunki u yoki bu harakat nomi bilan qo'llaniladigan ko'makchi mos kelmasligi mumkin. Shunda konstruksiya sifatdosh bilan tarjima qilinadi va birinchi faktning ikkinchi faktga bog'liqligi saqlanib qoladi:

在联合国领导下构成商谈手续⁵。

Zai lian he guo ling dao xia gou cheng shang tan shou xu.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbarligi ostida rasmiy muzokaralar yo'lga qo'yildi.

Yana bir qancha klishe xususiyati ega konstruksiyalarga misollar keltiramiz:

在斗争威慑下 *zai dou zheng wei she xia - kurashish qo'rquvi ostida*

⁴ “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года), Душанбе Ирфон, 2011 г.

⁵ “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года), Душанбе Ирфон, 2011 г.

在修正主义路线干扰下 *zai xiu zheng zhu yi lu xian gan rao xia- revizionistik yo‘nalish (kurs) bilan yo‘ldan adashtirilganlar (to‘siqlarga uchrab, 干扰 to‘sqinlik qilmoq fe’lidan)*

Quyidagi umumlashtirilgan ot gapda qo‘llanilishi mumkin:

不可能在人口不断增加的情况下保持目前的温饱水平⁶。

Bu ke neng zai ren kou bu duan zeng jia de qing kuang xia bao te mu qian de wen bao shui ping.

Aholining doimiy o‘sib borishi sharoitida xalq farovonligining bugungi darajasini ushlab turishning ilojisi yo‘q.

Shunday umumlashtirilgan ot konstruksiyada harakat nomi o‘rnida kelishi mumkin:

在十分困难条件下 *zai shi fen kun nan tiao jian xia- o‘ta qiyin (murakkab) sharoitlarda*

在自愿原则下 *zai zi yuan ze xia- ixtiyoriylik tamoyili (asosi) bo‘yicha*

Ismiy yoki predikativ aniqlovchiga ega umumlashtirilgan ot bilan kelgan konstruksiyali gapda asosiy voqeaning ikkinchi darajali voqeaga bog‘liqligi saqlanib qolinadi:

在共同富裕的目标下，鼓励一部分人通过诚实劳动和合法经营先富起来。⁷

Zai gong tong fu yu de mu biao xia, gu li yi bu fen ren tong guo cheng shi lao dong he he fa jing ying xian fu qi lai.

⁶ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публистического текста», Санкт-Петербург, 2007. -222б.

⁷ “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года), Душанбе Ирфон, 2011 г.

Umumiy farovonlik maqsadini ko‘zlagan holda, odamlarning ayrim guruhlarini sidqidil mehnatiga va qonuniy xo‘jalik faoliyatiga ko‘ra boshqalardan avval boy bo‘lishlarini rag‘batlantirish kerak.

Ba’zida 在 old ko‘makchisi tushirib qoldiriladi.

在.....上 *zai...shang* konstruksiyasi.

Ushbu konstruksiya birinchisiga qaraganda kamroq uchraydi; 在 下 konstruksiyasi kabi, o‘zining ikkinchi ma’nosida keng ma’nodagi joyga ishora qiladi:

在.....基础上 *zai...ji chu shang- asosida, negizida*

在.....问题上 *zai...wen ti shang- masalasida*

Quyida klishelarga ham misol keltiramiz:

在这一点上 *zai zhe dian shang- bu bandida*

在世界上 *zai shi jie shang- dunyoda*

在政治上 *zai zheng zhi shang- siyosatda*

在此基础上,中美两国关系实现了正常化⁸。

Zai ci ji chu shang, zhong mei liang guo guanxi shi xian lezheng chang hua.

Ikki mamlakat – Amerika va Xitoy o‘rtasidagi munosabatlarning bu asosida yaxshilanish amalga oshirildi.

在 上 konstruksiyasi otni aniqlab kelayotgan aniqlovchi tarkibiga kirishi mumkin:

邓小平同志 1980 年八月在中央政治局扩大会议上所作的.....讲话

Deng xiao ping tong zhi 1980 nian ba yue zai zhong yang zheng zhi ju kuo da hui yi shang suo zuo de....jiang hua.

⁸ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публицистического текста», Санкт-Петербург, 2007. -222б.

1980 yilning avgustida Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo‘mitasi politbyurosining kengaytirilgan majlisida o‘rtoq Den Syaopin qilgan chiqishida ...

在.....下 konstruksiyasi kabi, 在.....上 konstruksiyasi gap boshida ham, kesim oldida ham kelishi mumkin:

我们最终要在经济上赶上发达的资本主义国家，在政治上创造比这些国家更高更切实的民主⁹。

Wo men zui zhong yao zai jing ji shang gan shang fa da de zi ben zhu yi guo jia, zai zheng zhi shang chuang zao bi zhe xie guo jia geng gao geng qie shi de min zhu.

Natijada biz iqtisodda kapitalistik davlatlarga yetib olishimiz, siyosatda boshqa davlatlarga nisbatan ancha rivojlangan (yuqori) va ancha faol demokratiyani yaratishimiz kerak.

在.....内 *zai...nei* va 在.....里 *zai...li* konstruksiyalari.

Ushbu konstruksiyalar kamdan-kam uchraydi. 在.....内 konstruksiyasi joyga yoki vaqtning bir qismiga ishora qiluvchi so‘zlar bilan birga keladi:

在十余年内 *zai shi chu nian nei- 10 yildan ziyod (ortiq) bo‘lgan vaqt mobaynida*

在国内 *zai guo nei- davlat (mamlakat)da*

在全社会范围内 *zai quan she hui fan wei nei- butun jamiyat doirasida (ramkalarida)*

在.....里 *zai...li* konstruksiyasi joy yoki vaqt ma’nosini ifodalaydi, ikkinchi misolda 里 ko‘makchisi oldida 时间 so‘zi turibdi:

⁹ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публистического текста», Санкт-Петербург, 2007. -222б.

在.....中 *zai...zhong* konstruksiyasi

Ushbu konstruksiya ikkita ma'noga ega. Birinchi ma'nosi kesim va uning majburiy qismi tavsiflayotgan fakt (vaziyat) bilan birga bo'layotgan jarayonni ifodalaydi. 中 ko'makchisidan oldin 过程 “jarayon” so'zi kelishi mumkin, biroq, bu so'z bo'lmasligi ham mumkin, unda 中 oldida harakat nomi keladi.

在 20 年的改革开放过程中，我们可以明显地发现.....

Zai er shi nian de gaige kaifang guocheng zhong, women keyi mingxian de faxian.....

20 yillik islohotlar va ochiq eshiklar siyosati davomida biz kashf eta (aniq tushuna) oldikki, ...

在制度变迁过程中“社会中心群体”，就会丧失很多利益¹⁰。

Zai zhidu bian qian guocheng zhong “shehui zhongxin qunti ” ,jiu hui sangshi henduo liyi.

Tarkibiy o'zgarishlar davomida “jamiyatning markaziy guruhlar” o'z manfaatlarini yo'qotishlari mumkin.

Ikkinchi holatda 中 oldida keng ma'noda joy (makon)ga ishora qiluvchi ot qo'llaniladi:

在.....社会中 *zai...shehui zhong- jamiyatda*

在历史中 *zai...lishi zhong- tarixda*

在 联 合 会 报 中 ¹¹ *zai lianhe huibao zhong - qo'shma kommyunike (bayonot)da*

¹⁰ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публицистического текста», Санкт-Петербург, 2007. -222б.

¹¹ Nosirova Saodat, “Xitoy tilining ijtimoiy-siyosiy va diplomatik terminologiyasi”, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2011-yil b.110

在.....结构中 *zai...jiegou zhong- strukturalar (tarkibotlar)da*

在.....概念中 *zai...gainian zhong- tasavvurlarda*

在这种铁一般的社会结构中，政教是合一的。

Zai zhe zhong tie yiban de shehui jiegou zhong , zhengjiao shi he yi de.

Shunday temir (temir kabi mustahkam) ijtimoiy strukturalarda hukumat va din birlashishdi.

在某些新权威主义者的概念中，社会发展大约经历了这样三个阶段。

Zai mouxie xin quanweizhuyizhe de gainian zhong, shehui fazhan dayue jingli le zheyang san ge jiaduan.

Yangi avtoritarizm [nazariyasi] ba'zi tarafdorlarining tasavvurlarida ijtimoiy rivojlanish, umumiy qilib aytganda, ushbu uchta bosqichni bosib o'tdi...

Ba'zan, 中 *zhong* ko'makchisidan oldin kelgan ot joyni anglatuvchi *korxona, soha* kabi aniq ma'noda bo'lsa, ko'makchi turishib qoldiriladi:

Bu gapda 企业 *korxona* so'zidan keyin 中 *ko'makchisi* tushirib qoldirilgan, lekin u gapning ma'nosiga putir yetkazmagan :

在自然垄断性和社会公益性领域，国有企业将继续保持绝对优势。

Zai ziran longduanxing he shehui gongyixing lingyu, guo you qiye jiang jixu baochi jue dui youshi

Tabiiy monopoliyalar va ijtimoiy obodonlashtirish (kommunal xizmatlari) sohasida davlat korxonalari asosiy mavqeni saqlashni davom ettiradi.

在.....中 *zai...zhong* konstruksiyasida old ko'makchi 在 *tushiriladi:*

失业人数增多是所以发展中国家迈向现代过程中普遍存在的现象，并非中国特有。

Shiye renshu zeng duo shi suoyi fazhan zhong guojia mai xiang xianzai dai guocheng zhong putong cunzai de xianxiang, bing fei zhongguo teyou.

Ishsizlar sonining o'sishi – bu modernizatsiyaga bo'layotgan harakat jarayonidagi barcha rivojlanayotgan davlatlarning hamma joyida tarqalgan hodisadir, bu faqatgina Xitoyga xos xususiyat emas.

Vaqtni ifodalovchi qolipli konstruksiyalar

Vaqtni ifodalovchi qolipli konstruksiyalar gapning asosiy qismi va iborasida ifodalanayotgan faktlar, harakatlar, voqealarning bir vaqtning o'zida yoki ketma-ketligiga ishora qiladi. Vaqtni bildiruvchi ibora kesimda ifodalangan ish-harakatni davomiyligini, ushbu ish-harakatni boshlanganligini, gapning asosiy qismidagi voqeani amalga oshirilishi boshlanganligini ifodalaydi.¹²

Voqealarning bir vaqtning o'zida sodir bo'lishi

Bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan voqealarni quyidagi konstruksiyalar ifodalaydi:

在.....时 *zai...shi* , 在.....时候 *za...shihou* , 当.....时候 *dang...shihou*-
vaqtda, qachonki

在 (与)同时 *zai(yu)...shitong* - *bilan bir vaqtning o'zida*

在.....其间 *zai...qijian* - *vaqtda, mobaynida*

在.....际 *zai...ji* , 在.....时刻 *zai...shike* -*usha vaqtda*

在.....时期 *zai...shiqi*- *mobaynida, qachonki*

在作这样的声明时，美国承认中国关于彻底解决这一问题的一贯立场¹³。

Zai zuo zheyang de shengming shi, meiguo chengren zhongguo guanyu chedi jie jue zhe yi wenti de yiguan lichang.

Ushbu bayonot qilingan vaqtda (O'sha vaqtda), Amerika Xitoyning shu masalani batamom hal qilishga tegishli izchil tizimi (platformasi)ni e'tirof etdi.

¹² Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публистического текста», Санкт-Петербург, 2007 .-222б.

¹³ Идти в ногу с веяниями времени, развивать “Шанхайский дух”.// Избранные документы ШОС. - Пекин: Мировая литература. Т. 2. –779б

Ushbu misolda vaqtni ifodalovchi konstruksiya gapning birinchi qismida keltirilgan, uning to'liq shakli *zaide shi hou*. Lekin matbuot tilida klishe'larning ko'p qo'llanilishi bu kabi konstruksiyalarni ham qisqarib klishe ko'rinishiga kelishiga sabab bo'lgan.

与市场上的商品竞争同时，会场上候选人之间的竞争也开始了。

Yu shichang shang de shangpin jingzheng tongshi, hui changshang hou xuanren zhijian de jingzheng ye kaishi le.

Bozordagi mahsulotning raqobati bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy maydonda nomzodlar o'rtasida raqobat boshlanmoqda.

Yuqorida sinonimiya hodisasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, bu konstruksiyada boshlovchi element **在** *zai* o'rnida unga sinonim **与** *yu* elementi qo'llanilmoqda va bu o'zgarish konstruksiyaning umumiy sematikasiga hech qanday o'zgarish o'tkazmaydi.

Konstruksiyaning ikkinchi elementi sifatida **时间** *shijian* so'zi kelganida, undan keyin **里** ko'makchisi kelishi mumkin.

Voqealarning ketma-ketligi

Ma'lum bir muddat davomidagi voqealarning ketma-ketligi quyidagi iboralar bilan ifodalanadi:

在.....后 *zai...hou* , **在.....以后** *zai...yihou* , **在.....之后** *zai...zhihou* - ... dan keyin (so'ng)

在.....前 *zai...qian* , **在.....之前** *zai...zhiqian* - ... dan oldin (avval)

在保持 2014 年后美国和北约的军事存在¹⁴。

Zai baoche 2014 nian hou meiguo he beiyue de junshi cunzai.

2014-yildan so'ng AQSH va NATOning harbiy holatini saqlagan holda.

¹⁴ “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года) , Душанбе Ирфон, 2011 г.

Bu konstruksiya ham gapning birinchi qismida vaqt holini qamrab olgan holda qo'llaniladi.

Ko'pincha 在 *zai* old ko'makchisi tushirib qoldirilishi kuzatiladi, bu holda gapning umumiy ma'nosiga hech qanday putur yetmaydi. 在 old ko'makchisini tushirib qoldirilishi ko'pincha og'zaki tilda ko'p uchraydi.

体力劳动者参与市场经济后，立即从市场经济中获得利益。

Tili laodongzhe canyu shichang jingji hou, liji cong shichang jingji zhong houde liyi.

Jismoniy mehnat ishchilari bozor iqtisodiyotida ishtirok etganidan keyin „ ular shu zahoti bozor iqtisodiyotidan foyda ko'rishdi.

Voqea-hodisaning boshlanishi davrini, muddatini ifodalovchi qolipli konstruksiyalar 自.....以来 *zi...yilai* , 从.....以来 *cong...yilai*

Bunday ramkali konstruksiyalar gapning asosiy qismida tavsiflanayotgan harakat (voqea)ning boshlanishiga ishora qiladi.

Ramkani 自 yoki 从 old ko'makchisi bilan 以来 ...*dan beri* birikmasi hosil qiladi; konstruksiyaning ikkinchi elementi 起 *boshlanmoq – vaqtdan boshlab* fe'li bo'lishi mumkin.

Ko'pincha ibora gapda ifodalanayotgan voqeaning boshlanish sanasiga ishora qiladi.

自 2001 年以来，上海合作组织在生长量，明显扩大了挑战和威胁，安全领域和地域范围¹⁵。

Zi 2001 nian yilai, shanghai hezuo zuzhi zai sheng zhang liang , mingxian kuoda le tiaozhan he weixie, anquan lingyu he diyu fanwei.

¹⁵ Идти в ногу с веяниями времени, развивать “Шанхайский дух”.// Избранные документы ШОС. - Пекин: Мировая литература. Т. 2. –779б

2001-yildan buyon Shanghai Hamkorlik Tashkiloti faoliyati doirasida tahdid, chaqiriqlar spektri va geografik xavfsizlik sohalari kengayganligi, o'sish jarayoni ko'tarilganligi ko'rinib turibdi.

Ushbu konstruksiyadagi 从 cong old ko'makchi tushirilib qoldirilishi mumkin. Bu bilan gapning umumiy ma'nosiga putur yetmaydi:

改革开放以来，国有经济和集体经济都有很大发展。

Gaige kaifang yilai, guoyou jingji he jiti jingji dou you henda fazhan.

Islahotlar va ochiq eshiklar siyosati boshlangan vaqtdan boshlab davlat iqtisodiyoti ham, jamoaviy iqtisodiyot ham katta rivojlanishga ega bo'ldi.

Qolipli konstruksiyalarning boshqa turlari

在.....方面 zai...fangmian sohasida, yo'nalishida-konstruksiyasi

东亚在经济发展方面呈出与西方全然不同的发展模式。

Dongya zai jingji fazhan fangmian cheng chu yu xifang quan ran bu tong de fazhan moshi.

Sharqiy Osiyoda iqtisodiy rivojlanish sohasida g'arb modellariga mutlaqo o'xshamaydigan modellar paydo bo'ldi

Ushbu gapda 在.....方面 zai ...fangmian konstruksiyasi aniq "iqtisod" sohasiga ishora sifatida ishlatilgan ega+ 在.....方面 zai..fangmian+kesim formulasiga asoslanib gap qurilgan.

除了.....以外 chule...yiwai , 除.....外 chu...wai ...dan tashqari, istisno-konstruksiyasi

Ushbu konstruksiyada birinchi yoki ikkinchi qismi tushib qoldirilishi kuzatiladi va bu bilan gapning umumiy ma'nosiga ta'sir o'tkazilmaydi. Ko'pincha gap bitta ob'yektning turli sohalardagi xususiyatlari haqida ketsa, ob'yekt/sub'yekt gapning egasi vazifasida konstruksiyadan oldin qo'yiladi Ya'ni: ega+除了.....以外 chule...yiwai +hai(hamda, shuningdek)...

Agar gapda turli ob'yekt/sub'yekt haqida gap ketsa , u holda gap strukturasi quyidagicha bo'ladi: 除/除了 chu/chu le+ob'yekt/sub'yekt№1+外 /以外 wai/yiwai, ob'yekt/sub'yekt№2 + 也 ye...Ya'ni formulada ko'rib turganimizdek gap har xil ob'yekt/sub'yekt haqida ketyapti ularning turli xususiyatlari/faoliyat turlari so'zlashuv jarayonida aks ettirilmoqda.

除人口年增长率已降到 1.7%外，具体的经济政策也比较符合国情。

Chu renkou zengchang lu yi jiangdao 1.7%wai,juti de jingji zhengce ye bijiao fuhe guoqing.

Aholining yillik o'sish ko'rsatkichi 1,7 foizga tushganidan tashqari, aniq iqtisodiy siyosat asosan mamlakatdagi vaziyatga javob beradi (mos keladi).

Bu gapdagi 除.....外 qolipli konstruksiyasi bosh 在.....方面 qolipli konstruksiyasini o'z ichiga oladi.

E'tibor berish kerakki, 除了.....以外 konstruksiyasi ikkita bir-biriga qarshi ma'noga ega:

a)dan tashqari– iborada gap yuritilayotgan omil kesim ifodalayotgan harakat doirasidan istisno qilinadi (oxirgi misoldagidek: yuqorida keltirilganlardan boshqa (istisno qilib), barcha yo'nalishlarda natijalarga erishildi);

b) iborada gap ketayotgan omil kesim ifodalayotgan harakat doirasiga kiritiladi. Bu holatda gapda 也, 还 bundan tashqari old ko'makchilari keladi (inflyatsiyani yengish uchun samaradorlikni ko'tarish, va yana (bundan tashqari) ijtimoiy xarajatlarni qisqartirish kerak).

Qiyosiy qolipli konstruksiyalar.

Bu konstruksiyalarda quyidagicha iboralar qo'llaniladi:

像.....那样 *xiang....na yang*

像.....一样 *xiang....yiyang*

}

和 (同)样 *he(tong)....yang* -ga o'xshab, ... kabi ,..dek

如.....一样 *ru....yiyang*

如.....那样 *ru....na yang*

与.....比较 *yu....bijiao*

和.....比较 *he....bijiao*

} *bilan taqqoslab, qiyoslagan holda*

与.....相比 *yu....xinagbi*

Masalan:

和工业一样，农业也可以实行个人负责制。

He gongye yiyang, nongye ye keyi shixing ge ren fuzezhi.

Ishlab chiqarish (sohasi)ga o'xshab, qishloq xo'jaligida ham har bir odamning shaxsiy mas'uliyati tizimini joriy etish mumkin.

Boshqa qolipli konstruksiyalarga farqli ravishda, qiyosiy konstruksiya nafaqat gapning boshida yoki kesim oldida kelishi, balki asosiy konstruksiyadan keyin ham turishi mumkin.

从 (上) (来) 看 *cong(shang) (lai) kan*, 就.....看来 *jiu...kanlai* , 从.....

看 来 *cong...kanlai*– nuqtai nazardan, nazarda tutib (tutgan holda)

konstruksiyalari

Munosabat, fikrini ifodalash ma'nosidagi ushbu konstruksiya sinonimik konstruksiya hisoblanadi va kontekstda biri o'rniga biri qo'llanilishi mumkin. Ushbu kont o'ziga xosligi shundaki , ega o'rnida kelgan har qanday so'z 从 (上) (来) 看 *cong (shang) (lai) kan*, 就.....看来 *jiu....kanlai* ,

从.....看来 *cong....kanlai* gapda jonlashgandek bo'ladi. Masalan:

从历史发展的趋势看，世界不会走向黑暗而是走向光明¹⁶。

Cong lishi fazhan de qushi kan, shijie bu hui zou xiang heian ershi zou xiang guangming.

Tarixiy rivojlanish yo‘nalishi (tendensiyasi)ni e‘tibor (inobat)ga olib, dunyo zulmatga emas, yorug‘likka qarab ketmoqda.

就每年的速度看来，并不算快，但.....

Jiu mei nian de sudu kanlai,bing bu suan kuai,dan.....

Har yillik tezlashtirish (jadallashtirish) nuqtai nazaridan, [bu sur‘atlar]ni tez deb bo‘lmaydi, lekin...

从“五四”新文化运动的角度看来，这无疑是一种开倒车的思潮，但这一思潮中包含了对西方现代化的批判的审视，从这个角度看来，又有其合理的内核。

Cong “wu si”xin wenhua yundong de jiaodu kanlai, zhe wuyi shi yi zhong kai daoche de sichao, dan zhe yi sichao zhong baohan le dui xifang xiandaihua de pipan de shenshi, cong zhe ge jiaodu kanlai,you you qi heli de neihe.

Yangi madaniyat uchun “4-may” harakati nuqtai nazaridan, bu, shakshubhasiz, orqaga ketuvchi oqim edi. Biroq, bu oqimda g‘arbiy modernizatsiyaga tanqidiy qarash mavjud edi, va shu nuqtai nazardan, [unda] takomillashtiruvchi (rasional) negiz bor edi.

Old ko‘makchi tushib qolishi ham mumkin:

不容许进行国有资产的产权交易，表面上看来似乎是在维护国有资产的利益，实际上并不利于国有资产的保值增值。

Bu rong xu jinxing guoyou zichan de chanquan jiaoyi, biao mian shang kanlai sihu shi zai wei hu guoyou zichan de liyi, shijishang bing bu liyu guoyou zichan de baozhi cengzhi.

¹⁶ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публистического текста», Санкт-Петербург, 2007. -222б.

[Agar] davlat mulkiga haq-huquqlarni almashinishga ruxsat berilmasa, [unda] yuzaki ko'rib chiqishda [bu] go'yoki davlat mulki manfaatlari himoyasi bordek ko'rinadi, aslida esa bu davlat mol-mulki qiymatini saqlab qolish va ko'tarish unchalik foydali emas.

3. Suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda klishe o'rnida qo'llanuvchi venyan tili elementlari

Hozirgi kunga kelib xitoy tili dunyo tillaridan biriga aylanganligi hech kimga sir emas, shu bilan birga bu tilda so'zlashuvchilar soni ham dunyo aholisining 1/3qismini tashkil etadi. Xitoy tili terminologiya sohasi ham kun sayin yangilanib, rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda qadimgi xitoy-venyan tilidagi frazeologik birliklar ham keng qo'llanilib, ayniqsa hujjatsozlikda ko'p uchratish mumkin. Lekin ularni to'g'ri tarjima qilishda hozirda ham bir qancha muammolarga duch kelamiz. Masalan quyidagi ko'rib chiqadigan materiallarda venyan tilidagi elementlar ko'pligi. Quyida biz rasmiy hujjatlar matnlarda ko'p uchraydigan ayrim frazeologik birliklarni ko'rib chiqamiz.

Venyan, aniqrog'i – qadimgi xitoy tilining elementlari, hozirgi zamon (zamonaviy) publisistika matnida keng uchraydigan unsurlardir. Bu – turg'un iboralar deb nomlanadigan 4ta ieroglifdan iborat bo'lgan idiomatik (undagi so'zlar ma'nosi faqat bitta yaxlit ibora orqali ifodalanadi) bo'lgan va boshqa so'z birikmalaridir, bu asosan, venyan grammatikasi asosida yasalgan siyosiy shiorlar, ba'zi bir konstruksiyalar va ko'pgina yordamchi so'zlardir. Quyida eng ko'p uchraydigan idiomatik iboralar misollarini keltiramiz:

以古非今 *yi gu fei jin* - O'tmishdan foydalanib, hozirgi vaqtni tanqidlamoq.

损公利私 *sun gong li si* - Shaxsiy manfaati deb, boshqalar manfaatiga zarar yetkazmoq (o'z manfaati uchun).

争先恐后 *zheng xian kong hou* - Orqada qolib ketishdan qo'rqib, oldinga yugurmoq.

名符其实 *ming fu qi shi*- Oti mazmuniga to'g'ri keladi (Ismi jismiga mos).

自负盈亏 *zi fu ying kui* - O'z daromadlari va zarari uchun javob bermoq.

自食其力 *zi shi qi li*-O'z mehnati bilan yashash

必经之路 *bi jing zhi lu*- Bosib o'tish kerak bo'lgan yo'l.

记忆犹新 *ji yi you xin*- Hozirgina sodir bo'lgan hodisadek esda tutmoq.

水落石出 *shui luo shi chu* - Suv ketib, toshlar ko'rindi (haqiqat yuzaga chiqdi).

前事不忘，后事之师 *qian shi buwang,hou shi zhi shi*- O'tmish – kelajakning ustoz (so'zma-so'z: agar o'tmishni unutmasa, bu kelajakni ustoz bo'ladi).

Ko'pincha bunday so'z birikmalari kesim vazifasini bajarib keladi:

私有制 … 是谁占有 一望而知，

Siyouzhi....shi shui zhanyou yi wang er zhi

公有制 … 是谁占有 似有若无

Gongyouzhi....shi shui zhanyou si you ruo wu

Xususiy mulkka kelsak, uning egasi kimligi birinchi qarashdanoq ma'lumdir (so'zma-so'z: qaragan zahoti, darrov tushunasan), lekin jamoat mulkiga kelsak, uning egasi kimligi noma'lumdir (egasi bormi yoki yo'qmi).

至今，对股份制存有偏见依然大有人在¹⁷。

Zhijin, dui gufenzhi cunyou you pian jian yiran da you ren zai.

Bugungi kunga qadar aksionerlik tizimiga qarshi bo'lgan noto'g'ri fikrlilar ilgariidek hamon ko'pchilikni tashkil etadi. (so'zma-so'z: ularni tarafdori bo'lgan odamlar hali ko'p).

¹⁷ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публистического текста», Санкт-Петербург, 2007.-222б.

何况大规模增加租税很可能事与愿违。

Hekuang da guimo cengjia zushui hen keneng shi yu yuan wei.

Ayniqsa, agar soliqlarni juda ham ko'tarib yuborsa, unda, ehtimol, natija kutilayotganga teskari bo'ladi.

但我国政府却常常力不从心。

Dan wo guo zhengfu que changchang li bu cong xin .

Biroq, mamlakatimiz hukumati ko'pincha o'z imkoniyatlarini hisobga ololmaydi (so'zma-so'z: imkoniyatlar to'g'ri kelmaydi (bo'y sunmaydi) istaklarga).

长此以往，这些企业只能坐以待毙。

Chang ci yi wang ,zhexie qiye zhi neng zuo yi dai bi.

Agar shunday davom etaversa, unda shunday korxonalarga o'tirib, faqat o'limini kutish qoladi.

Turg'un iboralar fe'l –kesimga nisbatan predikativ to'ldiruvchi sifatida kelishi mumkin:

人事的功勋则在于如何扬长避短¹⁸。

Renshi de gongxun ze zaiyu ruhe yang zhang bi duan

Insonning ishlardagi yutuq (muvaqqafiyat)lari o'zini fazilatlarini o'stirishi va nuqsonlaridan ozod bo'lishi bilan belgilanadi(aniqlanadi).

Turg'un so'z birikmasi gapning ismiy bo'lagiga aniqlovchi bo'lib kelishi mumkin:

似是而非的人生观。

Si shi er fei de ren shengguan.

Chala yarim dunyoqarash (sohta haqiqat)

夫妻半合同体的意识。

¹⁸ Т.Н.Никитина «Грамматика китайского публицистического текста», Санкт-Петербург, 2007. -222б.

Fuqi ban he tong ti de yishi

Er va xotin yagona (qo'sh hokiz) bir butunligi haqida tasavvur

一种杀鸡取卵的办法。

Yizhong sha ji qu luan de banfa.

Tuxumni olish uchun tovuqni o'ldirish uslubi

Idiomatik iboralar substantivlashishi (otlashishi) mumkin, shunda ular gapning ismiy bo'lagi, ega yoki to'ldiruvchi sifatida keladi. Bu holatda so'zma-so'z tarjima qilish juda qiyin bo'ladi.

改革开放以来，工业的迅猛发展，特别是乡镇工业的导军突起，正在使我国农业的可持续发展面临一系列挑战¹⁹。

Gaige kaifang yilai, gongye de xunmeng fazhan, tebie shi xiangzhen gongye de dao jun tu qi, zhengzai shi wo guo nongye de ke texu fazhan mianlin yi xi lie tiaozhan.

Islohotlar va ochiqlik siyosati boshlangan vaqtidan sanoatning sur'atli rivojlanishi, ayniqsa, yangi katta – kichik shaharlar va qishloqlar sanoatining paydo bo'lishi, mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligining izchil rivojlanishi bir qator qiyinchiliklarga duch keldi (so'zma-so'z: jangga chaqirishlar).

导军突起 *dao jun tu qi*- yangi armiya behosdan paydo bo'ldi iborasi lug'atlarda “yangi kuchlar paydo bo'ldi” deb talqin qilinadi, ushbu iboraga aniqlovchi sifatida keladi 工业 gong ye, uning aniq ma'nosi: yangi ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq kuchlar, kichik shaharlar va qishloqlarda paydo bo'lgan va qishloq xo'jaligining izchil rivojlanishiga chaqirish tashladi (ya'ni tahdid soldi) degan ma'noda kelyapti.

Turg'un iboralar gapda kesimga aniqlovchi sifatida ham kelishi mumkin:

¹⁹ Тао Лян. Словообразовательный анализ неологизмов китайского языка периода политики «открытых дверей». - Тайюань, 2002. – 108 б.

另一方面，应在社会大众中大张旗鼓地私扬和倡导民主精神，强化民主意识。

Ling yi fangmian,ying zai shehui dazhong zhong da zhang qigu de si yang he changdao min zhu jing shen,qianghua min zhu yishi.

Boshqa tomondan, bayroqlarni yoyib , baraban ovozi bilan, jamiyatning keng qatlamlarida demokratiyaning ruhini targ‘ib qilish, demokratiyaning g‘oyalarini mustahkamlash kerak.

Siyosiy shiorlar

Quyida iboralar klishe o‘rnida ko‘pincha siyosiy shiorlar va da’vatlar sifatida qo‘llaniladi. Shunday shiorlar misollarini keltiramiz:

实事求是 *shi shi qiu shi-* Haqiqiy voqelikdan kelib chiqmoq (so‘zma-so‘z: haqiqiy faktlardan to‘g‘risini qidirmoq).

自力更生 *zi li geng sheng-* O‘z kuchlariga tayanmoq.

拨乱反正 *bo luan fan zheng-* Adolatni tiklash, tartibsizliklarga barham bermoq (so‘zma-so‘z: tartibsizliklarga barham bermoq, adolatni tiklamoq).

各尽所能 *ge jin suo neng-* Har kimdan qobiliyatiga ko‘ra (har kim qodir bo‘lgan ishini qiladi).

古为今用 *gu wei jin yong-* O‘tmish hozirgi zamonga xizmat qilishi kerak.

推陈出新 *tui zheng chu xin-* Eskidan (qadimgidan) yangini izlash [lozim].

Yangi, zamonaviy shiorlar yaratilishi ham mumkin, lekin ular bari-bir venyan grammatikasi me’yorlari bo’yicha yasaladi:

一国两制 *yi guo liang zhi-* bir davlat, ikkita tizim

按劳分配 *an lao fen pei-* mehnatga ko‘ra taqsimlanish

Faqat istisno tariqasida shiorlar hozirgi zamon grammatikasi me’yorlari bo’yicha hosil bo‘lishi hodisalari ham uchraydi:

翻两番 *fan liang fan- ikki karra ; ikki marta ko‘paytirmoq [20-asrning oxiridagi ishlab chiqarish]*

三个代表 *san ge dai biao- uch vakillik*

三个有利于 *san ge you li yu- uch ustuvorlik (yo‘nalish)*

Venyan tilidan yetib kelgan qolipli konstruksiyalar.

Publisistik matnda ko‘p uchraydigan 以.....为 *yi...wei* venyan konstruksiyasi. Hozirgi zamon matnidagi eng keng tarqalgan konstruksiya bu 以.....为 *yi...wei*. Qadimgi xitoy tilida bu konstruksiyaning 以 old ko‘makchisi shart yoki shart bo‘lmagan to‘ldiruvchini kiritishi mumkin edi. Masalan, vositali yoki sabab to‘ldiruvchi 为 old ko‘makchisini 以 ko‘makchisi boshqarib, bog‘lanish yoki *nimadir deb, kimdir deb hisoblamoq* ma’nosidagi fe’lni ifodalashi mumkin edi.

Zamonaviy matnda 以.....为 konstruksiyasidagi 以 old ko‘makchi bir so‘z bilan ifodalangan vositasiz to‘ldiruvchini ham ifodalashi mumkin. Ba’zan 为 fe’li gapning asosiy kesimi sifatida ifodalanishi mumkin:

要以计划经济为主，市场调节为辅。

Yao yi jihua jingji wei zhu, shichang diaojie weipu.

Rejalashtirilgan iqtisodiyotni asosiy (bosh) qilib (hisoblab) qilmoq, bozorni tartibga solishni esa yordamchi omil qilmoq (hisoblamoq) kerak.

竞争的胜利是以别人的失败为前提的。

Jingzheng de shengli shi yi bieren de shibai wei qianti de.

Raqobatdagi g‘alaba uchun dastlabki shart bo‘lib boshqa odamning mag‘lubiyati hisoblanadi (so‘zma-so‘z: raqobatdagi g‘alaba boshqa odamning mag‘lubiyatini o‘zining dastlabki sharti deb hisoblaydi).

Ko‘pincha 以.....为 konstruksiyasi ismiy elementga nisbatan aniqlovchi sifatida keladi:

以各尽所有为原则的社会。

Yi ge jin suo you wei yuance de shehui.

“Har kimdan qobiliyatiga ko‘ra” tamoyiliga asoslangan jamiyat.

以卫生部部长为首的代表团。

Yi weishengbu buzhang shou de daibiao.

Sog‘liqni saqlash vaziri boshchilik qilayotgan delegatsiya.

I bob boyicha xulosa

1. Xulosa sifatida shuni aytish lozimki hujjat turini bilish, hujjatning tuzilish jihatlari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish, hujjat tarkibida birlamchi va ikkilamchi qismlarini ajrata olish va shundan kelib chiqib, tarjimada hujjatning ma’nosini aniq ifodalashga xizmat qiluvchi qismlarni tez va sifatli tarjima qilishga ko‘proq vaqq sarflash- tarjima jarayonini osonlashtiruvchi omillardan biridir.
2. Gapning ikkinchi darajali elementlari sifatida kelayotgan qolipli konstruksiyalarni boshqa ikkinchi darajali elementlarga qaraganda ajratib olish osonroq, chunki ularning chegaralari aniq belgilangan bo‘ladi. Albatta bunday konstruksiyalar xitoy tilida ko‘plab uchraydi va ularning barchasi har xil ma’noda kelib, agar bunday konstruksiyalarga to‘liq leksik ma’noga ega so‘zlar kiritilsa, klishe xususiyatiga ega konstruksiyalar hosil bo‘ladi. Shu yo‘l bilan xitoy tili matbuot, siyosat, diplomatiya sohalarida kundan-kunga yangi klishehar hosil bo‘lmoqda.
3. Ko‘rib turganimizdek hujjatlarda klishehar o‘rnida nafaqat konstruksiyalar, ramkali konstruksiyalar bal’ki venyan tilidan hozirgahca yetib kelgan turg’un iboralar, fakultativ elementlar ham keng qo‘llanilishi kuzatiladi. Hozirgi kunda ham ular siyosiy sohada ko‘p qo‘llaniladi. Hozirgi xitoy

rasmiy sohasining leksik qatlami barcha qonun-qoidalarga binoan rivojlanib bormoqda. Davr xususiyatlari, millatning dunyoqarashi, mentalitet xususiyatlari bevosita rasmiy va matbuot tilida o'z aksini topishi ushbu tilda xalqning qadimiy til unsurlari bo'lmish venyan iboralaridan keng tarzda va oqilona foydalanishi ushbu sohaning chuqur tahlilga tortilishiga sabab bo'lmoqda.

IKKINCHI BOB. ShHT HUJJATLARINI TARJIMA QILISHDA SEMANTIK KOMPONENTLAR, FORMULYARLAR MASALASI

Hozirgi zamon xitoy tilidagi hujjatlar tarkibida o'ziga hos leksik-semantik hususiyatlar mavjud. Leksik – semantik hususiyatlari jihatidan rasmiy yozishmalar o'z atamalar tizimiga, qoliplashgan turg'un birikmalariga, sinonim, antonimlar kabi turli ifoda vositalariga ega. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, xizmat xatlari hissiy-bo'yoqdor so'zlardan holi bo'lishi talab etilsa, rasmiy yozishmalar, aksincha, ekspressiv, hissiy - bo'yoqdor, maqtov va iltifot so'zlarga egaligi bilan ajralib turadi. Maqtov so'zlari yozishmalarning nota bayonotlarning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning oz yoki ko'p qo'llanishiga ko'ra ushbu hujjatlar ma'lum bir turlarga ajratiladi. Chunonchi, notalarda 阁下 gexia “Janobi oliylari”, x x 先生阁下 xiansheng gexia “Hurmatli janob”, 顺致最崇高的敬意 shunzhi zuichonggaode jingyi “Sizga bo'lgan yuksak hurmatimga ishonch bildirgaysiz” kabi so'zlarning ko'p qo'llanilishi hujjatga do'stonalik, oz qo'llanilishi esa rasmiy tus beradi. Yozishmalarda sinonimik qatorning ko'proq uslubiy neytral so'zlari emas, balki ijobiy hissiy bo'yoqli va kitobiy uslubga xos so'zlar ko'p qo'llaniladi. Chunonchi, o'zbek tilidagi hujjatlarda “bildiraman” so'zi o'rniga “izhor etaman”, “vaqt” so'zi o'rnida “fursat”, “bir marta” o'rnida “bir bora”, “mansab” o'rnida “lavozim”, “rahmat” o'rnida “tashakkur”, “hursand” o'rnida “mamnun” so'zlari qo'llanadi. Bayonnomada ko'chma ma'noda qo'llanuvchi turg'un so'z birikmalari keng qo'llaniladi. Bunday turg'un birikmalar yozishmaga ko'tarinki ruh berishga, ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xitoy yozuvining tarixi 4000 yillik muddatni o'z ichiga olgan. Tabiiyki xitoy tilidagi hujjat (qog'ozga tushirilgan ko'rinishida) ham chuqur tarixiy ildizlarga ega.

Qadimgi Xitoyning ilk hujjati Zhou sulolasi (er.av.II asr – er.av.221) davrida qo'llanilgan. O'sha davrda hujjat bilan boshqa bir davlatga yuborilgan

vakil 国使 guoshi, ya'ni "davlat vakili" atamasi bilan yuritilgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha 国使者 guoshizhe (bu yerda 者 zhe "shaxs" ma'nosidagi yarimsuffiks) atamasi ilk bora "vakil" ma'nosida qo'llanilgan.²⁰

Tarixiy manbada keltirilishicha: "Iltimos iqtidorli bir insonni yuboring, u davlat kitobini (Ishonch yorlig'i) tuzadi".²¹ Bu yerdagi 国书 guoshu, ya'ni "davlat kitobi" ikki davlat vakillari o'rtasidagi imzolanadigan shartnoma shaklidagi hujjat ma'nosida ishlatilgan. Bu davlat kitobi qadimgi Xitoyning ilk rasmiy hujjati bo'lgan.

1949 yil 1 oktyabrda Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topgan kuni Mao Szedun "XXR hukumati deklaratsiyasi" va Tashqi ishlar vaziri Chjou Enlayning har bir davlatga yuborgan 公告 gong gao "Deklaratsiya" mazmunini o'z ichida aks ettirgan rasmiy xati Yangi Xitoyning ilk rasmiy hujjatlari sifatida e'tirof etilgan.²²

Hujjatlarining turi har - xil bo'lib, har birini yozishning o'ziga hos qonun - qoidalari borki, ularga qat'iy rioya qilinishi shart. Hozirgi vaqtda davlatlararo aloqalarda yozishmalarning quyidagi turlari faol qo'llanilmoqda: nota va bayonotlar, rasmiy xatlar, ilova xatlar, yarim rasmiy shaxsiy xatlar (nomalar), esdalik yozishmalar, diplomatik qaydnomalar (protokol), memorandumlar.

Sanab o'tilgan an'anaviy, barcha tomondan e'tirof etilgan hujjatlar qatorida ko'pchilik davlatlar qo'llaydigan, ammo unchalik qat'iy bir qolipga, shaklga ega bo'lmagan hujjatlar atamaları mavjud. Bu guruhga deklaratsiyalar (bayonnoma), axborotnomalar, davlat rahbarlarining murojaatlari, shuningdek

²⁰ Кўрсатилган манба. – 27 б.

²¹ Кўрсатилган манба. – Б.27.(请取有采用者，参造国书)

²² Кўрсатилган манба. – Б. 1.

telegrammalarda qo'llaniluvchi atamalar kiradi. Keyingi paytda telegrammalar yuborish odat tusiga kirib bormoqda. Ular milliy bayramlar, tavallud kunlar, yubileyler munosabati bilan yuboriladi.

1. Hujjatlarida qo'llaniluvchi komponentlarning semantik tahlili

Semantik komponentning muhim bir xususiyatlaridan biri - bu uning yuqori darajada mavhumligidir. Aynan shu xususiyat semantik komponentlarning moslashuvchanligi, nisbatan turg'unligini belgilaydi. Bir komponent turli hil so'zlarning ma'nosiga kiradi, bu esa semantik komponent individual bo'la ololmasligini ko'rsatadi. Semantik komponent ma'lum darajada "silliq", "yuzsiz" bo'lishi lozim. Bu unga turli so'zlar ma'nolariga qo'shimcha element sifatida singishiga yordam beradi.

Bevosita rasmiy sohasiga kelsak, semantik komponentlar turli hujjatlarda keng qo'llaniladi va ko'pincha bir semantik element turli mavzudagi hujjatlarda turlicha talqin etiladi. Quyida biz xitoy hujjatlarida uchraydigan ayrim semantik komponentlarini ko'rib chiqamiz:

就 jiu "o'sha zahotiyuq, tezda". Ushbu komponent fe'l so'z turkumidagi so'zdan oldin qo'yilib, ish – harakatning qisqa vaqt ichida sodir bo'lganligini, bir voqeaning ikkinchi voqeadan so'ng tez sodir bo'lganligini ifodalab, tasdiq ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Yordamchi so'z ma'nosida 就 jiu vaqt holidan keyin ishlatilib, voqeaning ma'lum bir vaqt bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi va voqea ma'lum belgilangan vaqtda sodir bo'lganligi yoka sodir bo'lishi ma'nosini kuchaytiradi.

就 jiu: 1. «...dan kelib chiqib», «...ga ko'ra»

2. «aynan; u holda; shu zahotiyuq, tez» kabi ma'nolarga ega.

Masalan: 兹就 贵 方今年二月二日来信答复。。。如下 zi jiu guifang jinnian

eryue erri lai xin dafu ...ruxia. “Joriy yilning 2 fevralida Siz tomoningizdan yuborilgan xatga ko‘ra quyidagi javobni jo‘natmoqdamiz”.

Bu semantik komponent 就此 jiuci “shu bois” kabi so‘zlarning ham tarkibiga kiradi.

此 ci semantik komponenti ko‘rsatgich olmoshini ifodalab “hozir”, “shu vaqtda”, “bu yerda” kabi ma’nolarni beradi. M: 此后 cihou “shundan so‘ng”, 此外 ciwai “bundan tashqari, shu bilan birga”, 此刻 cike “hozirgi paytda” kabi so‘zlar tarkibida qo‘llanilishi kuzatiladi.

致 zhi “yubormoq, ifodalamoq” ma’nolarida qo‘llaniladi. Gap tarkibida quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. «bermoq», bu ma’noda 给与 geiyu so‘zining ma’nosiga yaqin;
2. boshqa bir Tomonga nisbatan seremonial etiket, hurmatni ifodalash maqsadida;
3. tenglik hissini kuchaytirish maqsadida;
4. diqqatni bir joyga qaratmoq maqsadida;
5. 以至 yizhi tarkibida esa natija ma’nosidagi bog‘lovchi vazifasida qo‘llaniladi va “natijasi o‘laroq”, “...ga olib keldi” ma’nolarni ifodalaydi.

对 dui semantik komponent vazifasida yo‘nalish bog‘lovchisi ma’nosida ishlatiladi, “...ga”, “... qarab” kabi ma’nolarni bildiradi va ikki xil insonning o‘zaro mos kelish ma’nosini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ko‘pincha gap tarkibida fe’l vazifasini bajaradi:

1. 对待 duidai “...ga murojaat etmoq, ...ga e’tibor bermoq”;

2.对付 duifu “biror – bir narsaning uddasidan chiqmoq”;

3. 对航 duihang “...ga qarshi bo‘lmoq”;

4. 朝 chao “...ga chiqmoq”, 向 xiang “...ga qarab”, 对 dui “...ga yuzlanib” kabi bog‘lovchilar vazifasida ham ishlatiladi;

5. 对于 duiyu “...ga ko‘ra; haqida” ma’nosini ifodalaydi.

将 jiang semantik komponenti:

a) ravish vazifasida diplomatik hujjatlarda yaqin orada sodir bo‘lajak voqea – hodisani ifodalash ma’nosida qo‘llaniladi;

b) biror - bir paytning yaqinlashuvini ifodalaydi;

v) belgilangan kelajak paytida sodir bo‘lajak voqeani ifodalaydi;

g) kelajak zamonining belgisi sifatida ishlatiladi;

d) yordamchi so‘z sifatida vositasiz to‘ldiruvchining inversiyasi uchun, ya’ni fe’ldan oldingi o‘ringa olib chiqish uchun ishlatiladi. M: 将 jiang + ot +

fe’l = «kelajakda biron narsa qilmoq». M: 我方将于近期内函告我方的决定。

Wofang jianyu jinqinei hangao wofangde jueding. Qarorimiz haqida Sizga yaqin orada xabar beramiz.

签 qian “imzolamoq, tamg‘a” ma’nosidagi semantik komponent bo‘lib:

1. Insonning imzosi qo‘yiladigan rasmiy hujjatlarda mas’uliyatni ifodalash maqsadida;

2. Xujjatga rasmiyatchilik ma’nosini berish, oddiy xatlarga ham muhim fikrni kiritishda qo‘llaniladi:

请签署此项协议，并将正本寄回一份。Qing **qianshu** ci xiang xieyi, bing jiang zhengben jihui yifen. Kelishuvning asl nushasiga qo‘l qo‘yishingizni va bizga bir nusxasini yuborishingizni so‘raymiz.

于 yu adabiy xitoy tilida universal old qo‘shimcha vazifasida keng ishlatilib, “...ga”, “...dan”, “...da”, “...bilan”, “...uchun” kabi ma’nolarni bildiradi. Vaqt, yo‘nalish, taqqoslash ma’nolarida ishlatilishi ko‘p uchraydi. M: 至于贵方的照信。。。zhiyu guifangde zhaoxin... “Siz tomondan yuborilgan notaga kelsak...” kabi jumlada 于 yu semantik komponenti 至于 zhiyu so‘zi tarkibida kelib, yo‘nalish ma’nosini bildiradi.

以 yi semantik komponenti maqsad ma’nosida ishlatilib, ikki fe‘l o‘rtasida keladi. 以。。。为 yi...wei “biror kimni ...deb bilmoq”, 以后 yihou “...dan so‘ng, keyin”, 以前 yiqian “dan oldin, avval” kabi so‘zlar tarkibida ishlatiladi. O‘rin – joy va vaqt ravishi sifatida qo‘llaniladi. Masalan: 以期 yiqi maqsad bog‘lovchisi “...uchun”; 以便 yibian maqsad bog‘lovchisi “...uchun”; 以免 yimian “...oldini olish uchun”; 以某 yimou “...maqsadida”; 以内 yinei “doirasida, ...vaqt ichida” kabi so‘zlar tarkibida hujjatlarda nisbatan ko‘p ishlatiladi.

Ba’zi semantik komponentlar so‘zlar bilan birgalikda qolipli birikmalarni ham hosil qilish hususiyatiga ega. Masalan: hujjatlarda keng qo‘llaniluvchi 应。。。邀请 ying ... yaoqing “... taklifi bilan, ... taklifiga binoan, ko‘ra”; 在。。。陪同下 zai ... peitongxia “... hamrohligida”; 为。。。干杯 wei ...

ganbei “... uchun qadax ko‘tarmoq”;向。。。提出抗议 xiang ... tichu ganbei “...ga qarshilik bildirmoq” kabi birikmalarda.

Yuqorida keltirilgan semantik komponentlar hujjatlarda matnning umumiy ma’nosidan kelib chiqqan holda turlicha tarjima qilinishi kuzatiladi. Buning sababi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, semantik komponent individual bo‘la ololmasligi. Semantik komponentlarning “silliqligi” ularning turli so‘zlar bilan birikish jarayonini yengillashtiradi. Turli so‘zlar bilan birikib ma’lum bir semantik komponent bir vaqtning o‘zida bir necha ma’noni ifodalashi mumkin, bu esa o‘z navbatida hujjatlarni tarjima qilish jarayonida bir - oz qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Xitoy tilida yozilgan hujjat tarkibida bir nechta semantik komponentlarning qo‘llanilishi kuzatilib, ularning qo‘llanilishi hujjatga tantanavorlikni bag‘ishlashi kuzatiladi. Semantik komponentlarni noo‘rin ishlatilishi hujjatning mazmunining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin, shu sababli ushbu komponentlarni o‘rganish o‘z navbatida hujjatlarni tarjima qilishda ba’zi kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

Quyida “Соглашение между Правительством Республики Казахстан, Правительством Кыргызской Республики, Правительством Республики Таджикистан, Правительством Туркменистана и Правительством Республики Узбекистан о статусе Международного Фонда спасения Арала (МФСА) и его организаций” matni asosida semantik komponentlarning samaradorligini aniqlash borasida olib borilgan miqdoriy tahlilning jadval ko‘rinishi keltirilgan.

Jami 485 soʻz = 100 % (1716 ieroglif)		
Semantik komponentlar soni = 43 (8%)		
komponent	tarjimasi	qoʻllanilish miqdori
应 ying	...ga koʻra	3
于 yu	...dan	3
至 zhi	...gacha	1
就 jiu	... shu zaxotiyoq, tez	3
在 。 。 。 中 zai ...zhong	...da	1
在。。。上 zai ...shang	...da	2
及 ji	...ila	5
以 yi	...bilan birga	4
并 bing	...shuningdek	4
将 jiang	...kelajakda	6
鉴于 jianyu	...sababli, ...ga	1

与 yu	bilan, hamda	4
为 wei	... uchun	2
所 suo	barcha	1
原 yuan	...xoxish bildirmoq, istamoq	1
致力于 zhiliyu	...ga yordam beradi	1
对 。 。 。 进 行 访 问 dui ...jinxing fangwen	...ga tashrif buyurmoq	1
对此 duici	...sababli, ...ga	1

Keltirilgan semantik komponentlarning miqdoriy tahlil jadvalidan shuni ko‘rish mumkin - ki, bir bo‘g‘inli semantik komponentlar qatorida qolipli birikma ko‘rinishidagi semantik komponentlar ham nisbatan keng qo‘llanilishi kuzatiladi. Semantik komponentlar sinonimiyasini “...da” ma’nosini ifoda etish uchun qo‘llanilgan 在。。。中 zai ...zhong va 在。。。上 zai ...shang misolida ko‘rish mumkin, shuningdek 鉴于 jianyu va 对此 duici semantik komponentlari bir xil ma’nolarni, ya’ni “...sababli, ...ga” ma’nolarini ifodalash uchun ishlatilishini kuzatish mumkin.

2. Hujjatlarida qo‘llaniluvchi asosiy protokol formulalar

Hozirgi zamon xitoy tilida rasmiy yozishmalar keng qamrovli bo‘lib, ularda mamlakatlarning boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rnatishga va ularni rivojlantirishga oid masalalargina emas, xalqlarning taqdirini hal etishga

qaratilgan tinchlik, betaraflik, qurolsizlanish kabi siyosiy masalalar, o‘zaro iqtisodiy va madaniy hamkorlik qilishga oid turli masalalar ham yoritiladi.²³

Rasmiy hujjatlar bo‘lmish shaxsiy notalar, verbal notalar, kurer bilan jo‘natiluvchi esdaliknomalar (hozirgi kunda deyarli qo‘llanilmaydi), shuningdek A davlat hukumatining (hukmdorining) V davlat hukumatiga (hukmdoriga) yuboradigan shaxsiy xatlarida “formulyarlar” keng qo‘llaniladi. Hujjatlarining boshqa turlarida ularning qo‘llanilishi kuzatilmaydi yoki kam kuzatiladi.

“Formulyarlarga” quyidagilar kiradi: hujjat yuboriluvchi shahsga nisbatan murojaat so‘zlari, hujjat boshida qo‘llaniluvchi hurmat ma’nosidagi so‘zlar, hujjatning yakunida qo‘llaniluvchi komplimentar, ya’ni xushomad leksika.²⁴

Ushbu yozishmalarda qo‘llaniladigan murojaat so‘zlarining ahamiyati katta.

“Murojaat” deb xat yuboruvchi tomonidan xat qabul qiluvchiga nisbatan ishlatadigan dastlabki murojaat so‘zlari tushuniladi. Rasmiy faoliyatda odatda erkaklarga nisbatan “先生 xiansheng Janob”, ayollarga nisbatan “夫人, 女士, 小姐 furen, nushi, xiaojie”, ya’ni “Xonim” kabi murojaat so‘zlarini ishlatish lozim. Turmush qurgan ayollarga nisbatan “夫人 furen”, turmushga chiqmagan ayollarga nisbatan “小姐 xiaojie”, yoshi ulug‘lashib qolgan ayollarga nisbatan ham “夫人 furen” murojaat so‘zi ishlatiladi. Ushbu murojaat so‘zlardan oldin inson ismi – sharifi, mansab darajasi, unvonini belgilovchi so‘zlar qo‘yiladi. M: “卡里莫夫先生 kalimofu xiansheng Karimov Janoblari”, “议员先生

²³ Фёдоров Л. Дипломат и консул. М., 1965.- 212 б.

²⁴ Ковалёв А.Н. Азбука дипломатии. – М.: Изд – во «Международные отношения», 1977. – 81 б.

yiuyanxiansheng deputat janoblari”, “市长先生 shizhang xiansheng shahar xokimi janoblari”, “上校先生 shangxiao xiansheng polkovnik janoblari”, “秘书小姐 mishuxiaojie kotiba xonim”, “怀特夫人 huaite furen Vayt xonim” va hokazo.

Yuqori mansabdagi rasmiy insonlarga nisbatan, odatda Tashqi ishlar vaziri darajasidan yuqori lavozimdagi rasmiy insonlarga nisbatan, davlat tuzumini nazarda tutgan holda “阁下 gexia Janobi oliylari” iborasi qo‘llaniladi. Ushbu iboradan oldin unvonni bildiruvchi so‘z yoki “先生 xiansheng Janob” so‘zi qo‘shib aytilishi ham kuzatiladi. M: “部长阁下 buzhang gexia Vazir Janobi Oliylari”, “总统阁下 zongtong gexia Prezident Janobi Oliylari”, “主席先生阁下 zhuxi xiansheng gexia Rais Janobi Oliylari”, “总理阁下 zongli gexia Bosh vazir Janobi Oliylari” yoki “总理先生阁下 zongli xiansheng gexia Bosh vazir Janobi Oliylari”, “大使先生阁下 dashi xiansheng gexia Elchi Janobi Oliylari” va hokazo.

Lavozimga ega bo‘lgan ayolga nisbatan “夫人 furen Xonim” so‘zi ishlatiladi, yuqori lavozimga ega bo‘lgan ayolga nisbatan ham “阁下 gexia Janobi oliylari” murojaat so‘zi qo‘llanilishi mumkin. Monarx davlatlarida qirolga murojaat qilganda “陛下 bixia A’lo Hazratlari”, qirolichaga nisbatan ham shu murojaat shakli qo‘llanilgan, ya’ni “陛下 bixia Hazrati Oliylari” ; shoxzoda, malika va hokazolarga nisbatan “殿下 dianxia Oliy Hazratlari” murojaat shakllari qo‘llaniladi. Shunisi e’tiborlikki,陛下 bixia shakli 殿下

dianxia shakliga nisbatan hurmat ma'nosi yuqoriroq darajada. Knyaz, markiz, vikont kabi lavozimdagi insonlarga nisbatan “阁下 gexia Janobi oliylari” yoki “先生 xiansheng Janob” so'zlari ishlatiladi.

Fan doktori ilmiy darajasiga ega bo'lgan insonlarga nisbatan “博士 boshi” so'zi qo'llanilib, ba'zan ushbu so'zdan oldin “先生 xiansheng Janob” so'zi ham kelishi mumkin. M: “马丁博士先生 Mading boshi xiansheng doktor Martin janoblari” kabi.

Harbiy sohaga aloqasi bor odamlarga nisbatan harbiy unvoni yoki “harbiy unvon + 先生 xiansheng Janob” murojaat shakli ishlatiladi. Agar odamning ismi-sharifi ma'lum bo'lsa, ism va familiya orqali murojaat qilinadi. M: “上校先生 shangxiao xiansheng podpolkovnik janoblari”, “莫利上校 Moli shangxiao podpolkovnik Moli”, “莫利上校先生 Moli shangxiaoxiansheng podpolkovnik Moli janoblari” va h. Ba'zi davlatlarda general, marshal kabi yuqori harbiy unvonga ega bo'lgan insonlarga nisbatan murojaat qilganda “阁下 gexia Janobi oliylari” so'zi qo'llaniladi.

Xizmatkor insonlarga nisbatan “服务员 fuwuyuan xizmatkor” so'zi ishlatiladi. Agar ismi-sharifi ma'lum bo'lsa, ismi bo'yicha chaqiriladi. Lekin hozirgi kunda ko'plab davlatlarda xizmatkorlarga nisbatan murojaat qilganda ham “先生 xiansheng Janob”, “夫人, 小姐 furen, xiaojie Xonim” so'zlarining ishlatilishi ham kuzatilmoqda.

Cherkovda ishlaydigan insonlarga nisbatan odatda unvon nomi bilan yoki “unvon nomi + 先生 xiansheng Janob” murojaat shakli ishlatiladi. M: “福特神

父 Fute shenfu ruhoniylar Fud”, “传教士先生 chuanjiaoshi xiansheng missioner janoblari”, “特使先生 teshi xiansheng pastor janoblari” va h. Yepiskop darajasidan yuqoriroq unvondagi cherkov xodimlariga nisbatan “阁下 gexia Janobi oliylari” soʻzi qoʻllaniladi.

XXR kabi sotsialistik tuzumdagi davlatlarda odamlar bir - biriga nisbatan “同志 tongzhi Oʻrtoq” murojaat soʻzini qoʻllashadi. M: “主席同志 zhuxi tongzhi Oʻrtoq Rais”, “议长同志 yizhang tongzhi Oʻrtoq deputat”, “大使同志 dashi tongzhi Oʻrtoq Elchi”, “秘书同志 mishu tongzhi Oʻrtoq kotiba” va h. Baʼzida “Ism-sharif +同志 tongzhi Oʻrtoq” murojaat shakli ham ishlatilishi mumkin.

Yaponiyada ayollarga nisbatan odatda “夫人, 小姐 furen, xiaojie Xonim” soʻzi oʻrniga “先生 xiansheng Janob” murojaat soʻzi ishlatiladi.

Murojaat soʻzi odatda hujjat boshida yoki hujjat rasmiy qismining birinchi sarlavhasida qoʻyiladi. Baʼzi bir diplomatik hujjatlarda murojaat soʻzi rasmiy qism bilan birga bir qatorda yoziladi; baʼzida murojaat soʻzlari Kirish soʻzidan keyin ham qoʻyilishi kuzatiladi.

Hurmat maʼnosidagi soʻzlar xat yozuvchining xat oluvchi nomiga yozadigan, xatning boshlanish qismida ishlatiladigan hurmatni ifodalovchi soʻzlardir. M: 您 Nin “Siz” bu 你 Ni “Sen” olmoshining hurmat shakli. Xitoyda hurmatni bildirish uchun 老 lao (soʻzma-soʻz tarjimasi “qariya”) soʻzi “yoshi ulugʻ, tajribali” maʼnosidagi hurmat soʻzi sifatida koʻp qoʻllaniladi. Xitoy tilida hurmat soʻzlari murojaat soʻzlari bilan birga ishlatiladi. M: “x x x 总统阁下

zongtong gexia” “x x x Prezident Janobi Oliylari”; “x x x 国王陛下 guowang bixia” “x x x Qirol Hazrati Oliylari”; “x x x 主席同志 zhuxi tongzhi” “x x x O‘rtog‘ Rais” kabi. Bu misollardagi “x x x 总统 zongtong Prezident”, “x x x 国王 guowang Qirol”, “x x x 主席 zhuxi Rais” so‘zlari murojaat so‘zlaridir. “阁下 gexia Janobi Oliylari”, “陛下 bixia Hazrati Oliylari”, “同志 tongzhi O‘rtog‘ ”so‘zlari esa insonga nisbatan ishlatiladigan hurmat so‘zlaridir.

Hurmat so‘zlari odatda davlat rahbarlari, Podshoh, Tashqi Ishlar Vaziri kabi insonlarga nisbatan ishlatiladi. Oddiy insonlarga nisbatan esa murojaat so‘zlari ishlatiladi. Rasmiy hujjatlarda eng ko‘p qo‘llaniladigan hurmat so‘zlari quyidagilardir:

Papaga nisbatan “宗座 zongzuo Hazrati Oliylari”, Imperator yoki Podshoxga nisbatan “陛下 bixia Hazrati Oliylari”: “皇殿下 huang dianxia Imperator Hazrati Oliylari”, “王殿下 wang dianxia Podshoh Hazrati Oliylari”, “尊贵的殿下 zunguide dianxia Hurmatli Hazrati Oliylari”, “殿下 dianxia Hazrati Oliylari”; “阁下 gexia Janobi Oliylari”: “勋爵阁下 xunjue gexia Lord Janobi Oliylari”, “主教阁下 zhujiao gexia kashish (Pop) Janobi Oliylari” va hokazo.

Hujjatlarning yakuniy qismida qo‘llaniluvchi xushomad so‘zlar “seremonial so‘zlar”, deb ham yuritiladi. Ushbu so‘zlar odobni, kamtarinlik, hurmatni, ezgu tilak – istaklarni ifodalashda qo‘llaniladi. Rasmiy hujjatning ma’nosiga mos keluvchi so‘zlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ushbu hujjatning muvvafoqiyatli qabul qilinishini va yaxshi natijalarga olib kelishini ta’minlab berishi mumkin. Xushomad so‘zlar odatda ikki turga bo‘linadi:

1. rasmiy hujjatning boshlanish qismida yoziladigan salomlashuv soʻzlari;
2. rasmiy hujjat yakunida, imzodan oldin yoziladigan hurmat – ehtirom maʼnosidagi xushomad soʻzlar.

Rasmiy hujjat yakunida qoʻllaniladigan xushomad iboralarga odatda “顺致敬意 shunzhi jingyi” “Fursatdan foydalanib hurmat bildirib qolamiz”; “顺致崇高的敬意 shunzhi chonggaode jingyi” “Fursatdan foydalanib chuqur hurmatimizni bildirib qolamiz”; “顺致最崇高的敬意” shunzhi zui chonggaode jingyi” “Fursatdan foydalanib chuqur va samimiy hurmatimizni bildirib qolamiz” kabi iboralar kiradi. “最 zui” “eng” soʻzi bunday xushomad iboralarda diplomatik faoliyatda Tashqi Ishlar Vazirligi va chet davlatlardagi elchixonalar oʻrtasida olib boriladigan diplomatik yozishuvda, aynan rasmiy notalarda ishlatilishi mumkin, verbal notalarda bu soʻz ishlatilmasligi ham mumkin.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan turgʻun xushomad iboralardan tashqari personal rasmiy yozishuvda yana “祝你 (您) 身体健康 zhuni (nin) shenti jiankang ” “Sizga sihat – salomatlik tilab qolamiz” kabi iboralar qoʻllaniladi.

II bob boyicha xulosa

1. Rasmiy hujjatlar oʻz atamalar tizimiga, qoliplashgan turgʻun birikmalari kabi turli ifoda vositalariga ega. Shuni alohida taʼkidlab oʻtish kerakki, xizmat xatlarida hissiy - boʻyoqdor soʻzlardan holi boʻlishi talab etilsa, rasmiy yozishmalar, aksincha, hissiy-boʻyoqdor soʻzlarga boyligi, maqtov va iltifot soʻzlarga egaligi bilan ajralib turadi.
2. Rasmiy hujjatlarda qoʻllaniluvchi semantik komponentlarning muhim bir xususiyatlaridan biri - bu ularning yuqori darajada mavhumligidir. Aynan shu xususiyat semantik komponentlarning moslashuvchanligi, nisbatan turgʻunligini belgilaydi. Semantik komponent maʼlum darajada “silliq”,

“yuzsiz” bo‘lishi lozim. Bu unga turli so‘zlar ma’nolariga qo‘shimcha element sifatida singishiga yordam beradi. Semantik komponentlar hujjatlarda matnning umumiy ma’nosidan kelib chiqqan holda turlicha tarjima qilinishi kuzatiladi. Buning sababi, yuqorida ta’kidlaganimizdek, semantik komponent individual bo‘la ololmasligidadir. Semantik komponentlarning “silliqligi” ularning turli so‘zlar bilan birikish jarayonini yengillashtiradi. Turli so‘zlar bilan birikib ma’lum bir semantik komponent bir vaqtning o‘zida bir necha ma’noni ifodalashi mumkin, bu esa o‘z navbatida hujjatlarni tarjima qilish jarayonida bir - oz murakkablikni keltirib chikaradi. Xitoy tilida yozilgan hujjat tarkibida bir nechta semantik komponentlarning qo‘llanilishi kuzatilib, ular hujjatga tantanavorlikni bag‘ishlashi kuzatiladi. Semantik komponentlarni noo‘rin ishlatilishi hujjatning mazmunini tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin, shu sababli ushbu komponentlarni o‘rganish o‘z navbatida hujjatlarni tarjima qilishda ba’zi kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

3. Xitoy tili hujjatlarda “Protokol formulalar”: hujjat yuboriluvchi shahsga nisbatan murojaat so‘zlari, hujjat boshida qo‘llaniluvchi hurmat ma’nosidagi so‘zlar, hujjatning yakunida qo‘llaniluvchi komplimentar, ya’ni xushomad leksika turlariga bo‘lingan holda taxlil etilishi natijasida quyidagilar ma’lum bo‘ldi:

a) murojaat so‘zlar rasmiy hujjatning bosh qismida, hurmat ma’nosidagi so‘zlar diplomatik hujjatlarning ham bosh ham o‘rta qismida, xushomad so‘zlar (seremonial so‘zlar) va iboralar rasmiy hujjatlarning yakuniy qismida qo‘llanilishi kuzatiladi. Murojaat so‘zlar insonlarning sotsial o‘rniga qarab turlanishi kuzatiladi.

Hurmat so‘zlari odatda davlat rahbarlari, Podshox, Tashqi Ishlar Vaziri kabi insonlarga ishlatilishi, oddiy insonlarga nisbatan esa murojaat so‘zlari ishlatilishi e’tiborga sazovordir. Xushomad so‘zlar va iboralarni ishlatganda ikki Tomonning jamiyatda tutgan o‘rni, o‘zaro aloqasi va siyosiy vaziyatni nazarga olish lozim.

Hujjatlarning yakuniy qismida qo'llaniluvchi Hushomad so'zlar (Seremonial so'zlar) ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) rasmiy hujjatning boshlanishi qismida yoziladigan salomlashuv so'zlari;
- b) rasmiy hujjat yakunida imzodan oldin yoziladigan hurmat - ehtirom ma'nosidagi xushomad so'zlar.

Bu yerda ko'plab turg'un xushomad ma'nosidagi iboralarning qo'llanilishi kuzatiladi.

III BOB. HUJJATLAR MATNLARIDA SINONIMIYA VA TINISH BELGILARI – TARJIMA JARAYONINING “DUSHMANLARI” SIFATIDA

Sir emaski tilni boyitishga xizmat qiluvchi sinonimlar tarjimonlar faoliyatini qiyinlashtiruvchi omillardan biridir, xitoy tilida sinonimlarni aniqlash va sinonimlarning munosabati masalasi haqida bir qancha nuqtai nazarlar mavzud. Bu nuqtai nazrlar sinonim tushunchasini turlicha talqin etish va bir-biriga mazmun jihatdan yaqin bo'lgan so'zlar o'rtasidagi sinonimik bog'liqliklarni aniq'lashni shart qilib qo'ygan.

Jumlaning qismlarini semantik nuqtai nazardan bir-biriga bog'lovchi ham ajratish maqsadida qo'llaniluvchi ham – bu tinish belgilaridir. Tinish belgilariga ahamiyat bermasdan tarjimani amalga oshirish ko'plab xato va tushunmovchiliklarga olib kelishi sir emas, hech bo'lmaganda bunga ruscha “Казнить, нельзя помиловать” / “Казнить нельзя, помиловать” tinish belgilarning ahamiyatini yaqqol namoyon qiluvchi jumlaning misol o'rnida keltirish mumkin. Quyida biz tarjimonlarning “dushmanlariga” aylangan shu ikki til hodisasi haqida fikr yuritamiz va tavsiyalar berishga harakat qilamiz.

1. Rasmiy hujjatlar matlarda sinonim atamalar va ularni tarjima qilish masalasi

Tadqiqot ishimiz doirasida ko'tarilgan masalaning asosiy maqsadi xitoy tilidagi sinonimiya hodisasini aynan rasmiy hujjatlarda keng uchraydigan sinonimlar misolida talqin qilish, tarjima jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'llari, tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Sinonimiya masalasi ko'plab tilshunoslarning ilmiy tadqiqot mavzulari doirasida ko'tarilgan. Jumladan: С.Е.Яхонтов «Категория глагола в китайском языке», Горелов В. И. «Лексикология китайского языка», Семенов А.Л. «Лексика китайского языка», Grace Qiao Zhang “Using Chinese Synonyms” kabilarning ilmiy tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Quyida biz rasmiy hujjatlarda matnida keng qo'llanilgan ayrim sinonim so'zlarning paradigmatic xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Masalan: "o'tkazmaq", "amalga oshirmoq" fe'llarini ko'rib chiqamiz.

进行 *jinxing* , 实行 *shixing* , 执行 *zhixing* , 行使 *xingshi* , 实施 *shishi* , 施行 *shixing* – bu fe'llarning barchasi ma'nosi jihatidan bir-biriga juda yaqin (o'tkazmoq, amalga oshirmoq, lekin to'ldiruvchi va ma'noviy darajasiga ko'ra farqlanadi.

进行- publististikada eng ko'p qo'llaniluvchi fe'llardan biri bo'lib, umum, neytral va xalqaro ma'noga ega, ish-harakatni ifodalovchi to'ldiruvchilar bilan ifodalanadi. 进行大选 *jinxing daxuan*- umumxalq saylov o'tkazish; 进行建设 *jinxing jianshe*- qurilish ishlarini amalga oshirish (iqtisodiy, ma'daniy va h.k.); 进行工作 *jinxing gongzuo*-ishni amalga oshirish; 进行讨论 *jinxing taolun*- muhokama o'tkazish; 进行研究 *jinxing yanjiu*- tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

实行-bu fe'lning asl ma'nosi amalga oshirish, real hayotga tadbqiq qilish bo'lib, eng avvalo ma'lum bir dastur yoki loyihani biror-bir sohada hayotga tatbiq qilishni anglatadi. Bu fe'l, aynan mavhum fe'llar bilan qo'llaniladi. Masalan, 实行共产主义 *shixing gongchan zhuyi* – kommunizmni amalga oshirish (hayotga tatbiq etish). Bundan tashqari, odatda, 政策 *zhengce* fe'li to'ldiruvchi bo'lib keladi. Shu bilan birga ko'pgina matnlarda 制/制度 *zhidu* fe'li bilan ham kelishi kuzatilgan. 实行政策 *shixing zhengce*- siyosatni hayotga tatbiq qilish; 实行计划 *shixing jihua*- rejalarni (loyiha) tatbiq etish; 实行制度 *shixing zhidu*- tuzumni hayotga tatbiq etish; tuzumni o'rnatish;

实施 - mazkur fe'ning asl ma'nosi xuddi 实行 fe'li ma'nosidek amalga oshirish yoki hayotga tatbiq etishdir. Bu fe'lga ham 政策 fe'li to'ldiruvchi bo'lib keladi. Bu yerda ko'rinib turibdiki, ma'noviy jihatdan katta farq yoq. 实施政策 *shishi zhengce*- siyosatni hayotga tatbiq etish;

²⁵执行 - bu fe'lni alohida ko'radigan bo'lsak, 执 iyeroglifi “*qo'lga kiritmoq*” yoki “*ushlab qolish*” ma'nosini beradi. Aynan bu yerda ma'lum bir qonunni “*ushlab qolish*” yoki “*nazorat qilgan holda amalga oshirish*” ma'nosini beradi. 实行 fe'lidan farqli o'laroq, ma'lum bir loyiha yoki rejani biror-bir sub'yekt harakatini amalga oshirishda albatta bajarilishi kerakligini ifodalaydi, ya'ni buyruq, nizom, qonun-qoida va h.k. Bundan ko'rinib turibdiki, quyidagi fe'l ko'p hollarda “majburiy ish harakat” kabi ma'noni o'z ichiga olgan fe'llar bilan qo'llaniladi. 执行政策 *zhixing zhengce*- siyosatni amalga oshirish; 执行法律 *zhixing falv*-qonunni amalga oshirish; 执行任务 *zhixing renwu*-berilgan vazifani amalga oshirish (bajarish); 执行计划 *zhixing jihua*- rejani amalga oshirish; 执行命令 *zhixing mingling*-buyruqni amalga oshirish (bajarish);

行使 - mazkur fe'l asosan 权 morfemasini o'z ichiga olgan so'zlar bilan so'z birikmalar hosil qiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu fe'l asosan qandaydir huquqni ifodalaydigan fe'llar bilan keladi.²⁶ 行使否决权 *xingshi foujuequan*- Veto huquqini amalga oshirish (foydalanish); 行使权力 *xingshi quanli*- huquqidan foydalanish (hayotga tadbiq etish);

²⁵ Войцехович И.В., Кондрашевский А.Ф. Китайский язык-Общественно-политический перевод.- Москва : «Муравей»,2002.

²⁶ Huang Jinqi. Waijiao wenhui wenshu jiaocheng. Xia ce. – Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 2004, 621 б.

²⁷施行-mazkur fe'l asosan badiiy- siyosiy asarlarda uchraydi. Undan tashqari yuridik sohada ham ko'p uchrab, mazkur fe'l harakatlantirish, qonunni kuchga kiritish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Aynan "majburiy" bajarilishi kerak bo'lgan ma'noga ega so'z birikmalarini hosil qiladi. 施行政策 *shixing zhengce*-siyosatni amalga oshirish; 施行计划 *shixing jihua*-loyihani amalga oshirish.

Yuqoridagi fe'llardan ayrimlarini 政策 fe'li bilan kelgandagi farqini ko'rib chiqsak: 执行政策 *zhixing zhengce*- hukumat nazorati ostidagi qonunlarni bajarish ;实行政策 *shixing zhengce*-siyosatni amalga oshirish, ya'ni barchaga tegishli bo'lgan qonunlarni hayotga tatbiq etish; 施行政策 *shixing zhengce*-siyosatni amalga oshirish, ya'ni qonunlarni kuchga kiritish. Bundan ko'rinib turibdiki, umumiy ma'no bir bo'lgani bilan ulardagi ost ma'no biroz bir-biridan farq qiladi.

Yuqoridagi barcha fe'llar ma'lum bir ish-harakatini amalga oshirish, hayotga tatbiq etish kabi ma'nolarni ifodalash bilan bir qatorda, ba'zi so'zlar bilan o'tkazish yoki foydalanish kabi ma'nolarda ham keldi. Shu bilan bir qatorda ko'rinib turibdiki, umumiy ma'noga ega bo'lsa ham, lekin har bir fe'l o'zi bilan keladigan ma'lum fe'llarga ega. Tor ma'noda bir-biridan farq qiladi. Ayrimlarini gaplarda kelganda ko'rib chiqsak:

²⁸施行九年国民义务教育政策。

Shixing jiu nian guomin yiwu jiaoyu zhengce.

9 yillik ta'lim siyosatini amalga oshirish.

²⁷ Deng Shouxin. Han ying hanyu changyong jinyice yongfa cidian-Beijing: Beijing yuyan xueyuan chubanshi, 1996, 491-b

²⁸ Deng Shouxin. Han ying hanyu changyong jinyice yongfa cidian-Beijing, Beijing yuyan xueyuan chubanshi, 1996. 491-b.

总统希望能实行民主主义。

Zongtong xiwang neng shixing minzhu zhuyi.

Prezident demokratiyani hayotga tatbiq olish mumkinligiga umid qiladi.

这项法令要执行不太容易。

Zhexiang faling yao zhixing bu tai rongyi.

Bu qarorni amalga oshirish oson emas.

拜访(bàifǎng)/访问(fǎngwèn)

Ikkala soʻz ham feʼl soʻz turkumiga xos boʻlib, qayergadir tashrif buyurmoq yoki kimnidir koʻrishga bormoq va u bilan suhbatdosh boʻlmoq maʼnolarini ifodalaydi. Bu ikki feʼlning farqli jihatlari quyidagilardir:

拜访(bàifǎng) koʻpincha ijtimoiy munosabatlar doirasida qoʻllaniladi va har doim hurmat-ehtirom maʼnosini ifodalaydi. Mehmonning mezbbon huzuriga tashrif buyurgan holatidagi hurmatini taʼkidlab keladi.

Masalan: 拜访了几位科学家/拜访了市长先生。

访问(fǎngwèn) shuningdek ot soʻz turkumiga ham xos boʻlib, muayyan maqsad asosida biror joy, tashkilotga yoki maʼlum bir shaxsni koʻrishga bormoq maʼnosini ifodalaydi, oʻzida hurmat-ehtirom maʼnolarini mujassamlashtirmaydi.

Masalan: 访问工厂/访问足球运动员/去中国访问

帮忙(bāngmáng)/帮助(bāngzhù)

Ikkala soʻz ham feʼl soʻz turkumiga mansub boʻlib, oʻz kuchini ishlatgan holda boshqalarga koʻmaklashish maʼnosini ifodalaydi. Ularning quyidagi farqli jihatlari mavjuddir:

帮忙 (bāngmáng) ko‘pincha insonlarning maishiy hayotda yoki ishda bir-birlariga yordamlashishini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan: 小李要搬家, 大家都来给他帮忙。

帮助 (bāngzhù) esa nafaqat insonlarning bir-biriga yordamini, balki ma‘naviy yoki moddiy yordam ma‘nosini ham ifodalashi mumkin. Masalan: 帮助贫困学生/帮助学习上有困难的同学。

帮忙 fe‘li 离合词 (líhé cí)²⁹ hisoblanib, mazkur so‘zning ikki bo‘g‘ini orasiga boshqa so‘z yoki so‘z birikmasi qo‘shilishi mumkin, 帮帮忙/帮了我一个大忙/帮倒忙 kabi. Lekin 帮助 bunday ko‘rinishda ishlatila olmaydi.

保存 (bǎocún)/保留 (bǎoliú)

Ikkala so‘z ham fe‘l so‘z turkumiga mansub bo‘lib, asramoq, saqlamoq kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Ba‘zi hollarda bir-birini o‘rniga ishlatila oladi. Masalan: 过去的东西, 他只保存/保留了几样。Farq qiluvchi jihatlari esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

保存 ko‘pincha narsa-predmetlarga zarar yetkizmasdan, ularning mavjud bo‘lishini davom ettirish ma‘nosini bildiradi. Ko‘pincha aniq otlar bilan qo‘llaniladi. Masalan: 他保存了不少文物/保存力量, 下午还有一场比赛呢。

保留 esa biror narsani o‘zgartirmay aslicha saqlashni ta‘kidlaydi. Bu fe‘l ham aniq otlar, ham mavhum otlar bilan qo‘llaniladi. Masalan: 城市的改造应该保留原貌/这所房子作为文物保留了下来。Boshqa hollarda esa 保留 qoldirmoq,

²⁹离合词(líhé cí)

qolmoq kabi ma'nolarni ham ifodalab keladi. Masalan: 对这件事，我持保留意见。

保护 (bǎohù)/维护 (wéihù)

Ikkala so'z ham fe'l so'z turkumiga mansub bo'lib, g'amxo'rlik qilmoq, ziyon yetkazmaslikka harakat qilmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Ba'zi hollarda o'zaro almashilib ishlatila oladi. Masalan: 保护/维护公民合法权益。Boshqa hollarda esa mazkur fe'llar quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

保护 ko'pincha shaxs yoki narsa-predmetni ehtiyot qilmoq, muhofaza qilmoq kabi ma'nolarni ta'kidlab keladi, ko'pincha aniq otlar bilan birga qo'llaniladi. 保护 shaxs yoki narsa-predmetni bildirib keluvchi ot yoki olmosh so'z turkumiga mansub so'zlar bilan birikma hosil qiladi. Masalan: 保护环境/保护牙齿/保护资源/学会自我保护/他要保护自己的孩子。

维护 esa narsa-predmetni himoya qilmoq, ziyon yetkazmasdan saqlamoq ma'nolarini ifodalaydi. Mazkur fe'l ko'pincha mavhum otlar bilan birikadi va ko'pincha bu otlarning ma'no ko'lami nisbatan keng bo'ladi. Masalan: 维护国家主权/维护世界和平，kabi.

变 (biàn)/变化 (biànhuà)

Ikkala fe'l ham muayyan vaziyatning boshlang'ich holatdan boshqa holatga o'tishini bildiradi. Ularning farqli xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

变 dan so'ng ko'pincha o'zgargan natijani bildiruvchi natijaviy to'ldiruvchi ishlatiladi. Masalan: 天气变暖和了。/城市变得越来越漂亮了。变 fe'li

natijaviy to'ldiruvchi bilan qo'llanmagan hollarda uni 变化 bilan almashtirib ishlatiladi. Masalan: 社会在变/变化，我们的思想也要跟着变/变化。

变 shuningdek vositali to'ldiruvchi bilan ham qo'llaniladi, bunday holda barcha narsa-predmetga tegishli xossa va holatlarning o'zgarishi anglashiladi. Masalan: 这东西放在阳光下就变色。/这鞋穿了多年也不变形。变化 esa o'zgarish jarayonini yoki uning natijasini ta'kidlab keladi. Masalan: 气候的变化对人们的生活影响很大。变化 dan so'ng odatda vositasiz to'ldiruvchi ishlatilmaydi. Quyidagi so'z birikmalari tarkibida qo'llaniladi: 发生变化/起变化/有变化/随.....而变化。

变化 shuningdek ot so'z turkumiga ham xosdir: 这真是个可喜的变化。Biroq 变 bunday xususiyatga ega emas.

表达 (biǎodá)/表示 (biǎoshì)

Ikkala fe'l ham boshqalargama'lum etish uchun muayyan mazmun-mohiyatni namoyish etish ma'nosini anglatadi. Ularning farqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

表达 ko'pincha shaxsning o'z tuyg'ularini og'zaki yoki yozma nutq orqali ifodalaganda qo'llaniladi. Vositali to'ldiruvchi sifatida ot so'z turkumiga oid so'zlar ishtirok etadi. Masalan: 他还不能用汉语表达自己的意思。/经过锻炼，口头表达能力提高了。他的意思表达得很清楚。表示 esa shaxsning his-tuyg'ulari nutq orqali ifodalash bilan birga, xatti-harakat yoki munosabatlarning turli xil ko'rinishlari orqali bilan ifodalanganda qo'llaniladi.

To'ldiruvchi sifatida ot, fe'l, shuningdek, fe'lli so'z birikmalari ishlatiladi. Masalan: 她用行动表达了自己的意见。/对这种说法，我表达怀疑。

Ushbu bo'lim doirasida fe'llarni hujjatlarda qay darajada uchrashini tahlil qildik va quyidagi natijaga keldik: talil doirasiga 15 ta verbal va 15ta rasmiy nota matnlari tortildi. Matnlarda 进行 fe'li asosan 50% verbal notalarda uchraydi, 30% rasmiy notalarda uchraydi va asosan ³⁰进行工作 tariqasida kelishi kuzatildi. 执行 fe'li asosan 60% rasmiy notalarda uchraydi, 10% verbal notalarda uchraydi va asosan 执行任务 tariqasida kelgan. Qolgan fe'llar esa boshqa hujjatlarda masalan kommunique, memorandum va rahbarlarning tost matnlarida kelib, asosan diplomatik yozishmalarda ya'ni notalarda kam uchraydi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir fe'lni o'z qo'llaydigan sohasi, mavzusi mavjud va albatta, usha sohadan kelib chiqqan holda tarjima qilish darkor.

Fikrimizcha, sinonim tilning eng qiziq bo'limi bo'lib, har bir sinonim so'zlarning umumiy o'xshashligi bo'lishi bilan bir qatorda ularning farqli tomonlarini ham uchratish mumkin. Bu esa har tilning o'ziga xosligidan va shu tilda so'zlashuvchi xalqlarning urf-odatlaridan kelib chiqadi. Misol uchun, xitoy tilida bir so'z ham fe'l bo'lib kelishi mumkin, ham ot bo'lib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda ba'zi sinonimlar matndan kelib chiqqan holda, bir-biriga o'xshash bo'lmagan ma'nolarni ifodalashi mumkin. Bunga yuqorida, birgina “amalga oshirmoq” fe'lining matndan kelib chiqib, “foydalanmoq” ma'nosida kelgani ham misol bo'la oladi. Yuqorida aytib o'tgandek, ularni publitistik, adabiyot, siyosat, diplomatiya va h.k. sohalariga qarab keng yoki kam miqyosda qo'llaniladi.

³⁰ Huang Jinqi. Waijiao wenhui wenshu jiaocheng. Xia ce. – Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 2004.- 621 6.

2. Rasmiy hujjatlar matnlarida tinish belgilar ishlatilishining o‘ziga xos xususiyatlari

Tinish belgilari hujjatlar tili stilistik xususiyatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xitoy tili matnlarida tinish belgilarning ishlatilishi o‘ziga xosdir. Avvalambor vergul xususiyatlarini birma-bir ko‘rib chiqsak.

*Oddiy gaplarda ega va kesim orasiga vergulning qo‘yilishi*³¹

1. 这些基本目标和政策，有机统一，不可分割。

Zhe xie jib en mu biao he zheng ci, you ji tong yi, bu ke fen ge.

Ushbu asosiy maqsadlar va siyosiy tadbirlar biologik jihatdan bir butun- ajralmas.

2. 我国的生产的发展，远远落后于发达的资本主义国家。

Wo guo de sheng chan de fa zhan, yuan yuan luo hou yu fad a de zi ben zhu yi guo jia.

Bizning mamlakatimizda ishlab chiqarishning rivojlanish sur’atlari rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ancha orqadi.

Vergul yordamida modal fe’lni asosiy fe’l-kesimdan ajratish

双方决心，本着平等互利的原则，加强经济，文化，科技和其他方面的联系。

Shuang fang jue xin, ben zhe ping deng hu li de yuan ze, jia qiong jing ji, wen hua, ke ji he qi ta fang mian de lian xi.

Ikki tomon bir xil imkoniyatlarga asoslanib, iqtisodiyot, madaniyat, ta’lim, ilm, texnika va boshqa sohalarni rivojlantirishga ahd qilishdi.

Bir turdagi elementlar mavjud bo‘lgan gaplarda vergulning ishlatilishi

Umuman olganda bir turdagi elementlarni ajratishda maxsus “chapacha” vergul ishlatiladi. Ammo ba’zi holatlarda bir turdagi elementlarni oddiy vergul bilan ham ajratishadi. Ayniqsa bir turdagi elementlar kesim ishtirok etgan qurilmalar tarkibida bo‘lsa.

³¹ Кондрашевский А.Ф., Румянцева М.В. Практический курс китайского языка, М.: “Восток-Запад”, 2005. -80стр.

“在 (当) zai(dang) 。 。 。 时候 shi hou” qurilmasida bir turdagi elementlar³²

1. 在那两次转变中，当党和人民的力量遭到惨重损失，革命陷于，危机的时候，国内外敌人都认定我们必将失败。

Zai na liang ci zhuan bian zhong, dang dan he ren min de li liang zao dao xiu zhong sun shi, ge ming xian yu, wei ji de shi hou, guo nei wai gu ren dour en ding wo men bi jiang she bei.

Ushbu ikki o‘zgarishlar davomida partiya va xalq jiddiy zarar ko‘rganda, revolyusiya inqirozga tushganda, mamlakat va uning tashqarisidagi dushmanlarning ta’kidlashicha, biz albatta mag‘lubiyatga uchrashimiz kerak.

对 dui，对于 dui yu so‘zlari bir turdagi to‘ldiruvchilarni vergul bilan ajratadi.

2. 认真学习和深刻理解这些重大理论贡献，对于我们全面正确地贯彻落实十五大精神，坚定不移地沿着邓小平同志开创的建设有中国特色社会主义道路胜利前进，把我们的事业全面推二十一世纪，具有重要意义。

Ren zhen xue xi he sheng ke li jie zhe xie zhong da li lun gong xian, dui yu wo men quan mian zheng que di gui qie luo shi shi wu da jing shen, jian ding bu yi di yan zhe deng xiao ping tong zhi kai chuan de jian she you zhong guo te se she hui zhu yi dao lu sheng li qian jin, ba wo men de shi ye quan mian tui er shi yi shi ji, ju you zhong yao yi yi.

Ushbu jiddiy teoretik hissa masalani chuqur o‘rganish, 15-chi chaqiriqning g‘oyasini amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega, shuningdek, o‘z maqsadimiz sari, ya’ni janobu oliylari Den Syaopin tomonlaridan yo‘lga qo‘yilgan sotsial bozor iqtisodiyoti sari 21- asrga yo‘l olishimiz kerak.

³² Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка-М., 1989.

3. 毫无疑问，这对我们澄清思想上的种疑惑，深刻认识我国的基本国情，正确把握党的基本理论、基本路线，始终把发展社会生产力作为考虑一切问题的出发点，把“三个有利于”作为检验一切工作的根本标准，按照建设有中国特色社会主义事业的总体布局，脚踏实地把政治、经济、文化建设全面推向新世纪，具有重大的现实意义和长远的历史意义。

Hao wu yi wen, zhe dui wo men deng qing si xiang shang de zhong yi huo, shang ke ren zhi wo guo de ji ben guo qing, zheng que ba wo dan de jib en li lun, jib en lu xian, shi zhong ba fa zhan she hui sheng chan lizuo wei kao lu yi qie wen ti de chu fa dian, ba “san ge you li yu” zuo wei cha yan yi qie gong zuo de gen ben biao zhun, an zhao jian she you zhong guo te se she hui zhu yi shi ye de zong ti bu ji, jiao ta shi dib a zheng zhi, jing ji, wen hua jian she quan mian tui xiang xin shi ji, ju you zhong da de xian shi yi yi he chang yuan de li shi yi yi.

Bu albatta bizning g‘oyaga nisbatan bo‘lgan shubhalarni yo‘qotishga, mamlakatimiz holatini chuqur anglashga, partiyamizning asosiy g‘oyasini anglashga, jamiyatning ishlab chiqarish kuchini mustahkamlashga, “uch yo‘nalish”ni tahlil qilishda asosiy bo‘g‘inga aylantirishga, haqiqatdan uzoq ketmay keyingi asrga butunlay siyosiy, iqtisodiy va madaniy qurilishni ko‘chirishda katta amaliy va tarixiy ahamiyatga ega.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan gapda sakkizta oddiy va uchta “chappa” vergullar ishlatilgan. Birinchi oddiy vergul gapdagi informasion so‘z birikmalarni ajratadi. beshta vergul esa 对 *dui* qo‘shimchasini boshqarib, to‘ldiruvchilarni ajratadi. Shu bilan birga, 推向 *tui xiang* fe’li bilan shakllangan to‘ldiruvchilardan biri o‘z ichiga 按照 *an zhao* qo‘shimchasi bilan kiritiladigan ikkinchi darajali elementni qamrab oladi. Ushbu element ham vergul bilan ajratilgan (sakkizinchi), 推向 *tui xiang* fe’li 把 *ba* qo‘shimchasi bilan bo‘lgan to‘ldiruvchini boshqaradi. Unda uchta aniqllovchi bo‘lib,

ular “chappa” vergullar bilan ajratilgan. Yana xuddi shunday vergul 把握 *an wo* kesim- to‘ldiruvchisi bilan ajratiladi. Sakkizinchi oddiy vergul fe’ldan oldin qo‘yilgan.

Fe’l-kesim yoki bog‘lovchi ishlatilgan gapda, ikki yoki bir elementli qurilma bo‘lishi mumkin. Ushbu holda, ega kesimdan vergul orqali ajratiladi; agar qurilmada to‘ldiruvchi ajratilsa, unda vergul bog‘lovchidan so‘ng ishlatiladi; bog‘lovchidan so‘ng ikki nuqta ham ishlatilishi mumkin. Ammo ko‘p hollarda ushbu gaplarda tinish belgilar ishlatilmaydi.

*Kesim va bog‘lovchi o‘rtasidagi vergul*³³

指出这个纲领，是邓小平理论的重要内容，是党的基本路线在经济、政治、文化方面的展开，是这些年来最主要经验的总结。

Zhi chu zhe ge gang ling, shi deng xiao ping li lun de zhong yao nei rong, shi dan de jib en lu xianzai jing ji, zheng zhi, wen hua fang mian de zhan kai, shi zhe xie nian lai zui zhu yao jing yan de zong jie.

Ushbu dasturni amalga oshirish-bu Deng Syaopin ta’rifining asosiy mazmuni bo‘lgan, shuningdek, partiyani iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarini rivojlantirib yillar davomida to‘plangan tajribani ishga solish edi.

Bog‘lovchidan so‘ng ishlatiladigan vergul

1. 重要的是，公报有关规定能得到认真履行。

Zhong yao de shi, gong bao you guan gui ding neng de dao ren zhen lu xing.

Eng muhimi-kommyunikening ushbu qarori amalga oshirilishida.

2. 众所周知，中美关系正常化的一个重要原则是，美国承认只有一个中国。

Zhuan suo zhou zhi, zhong mei guan xi zheng chang hua de yi ge zhong yao yuan ze shi, mei guo cheng ren zhi you yi ge zhong guo.

³³ Хаматова А.А.Словообразования современного китайского языка- М.: “Муравей”, 2002.-120стр.

Hammaga ma'lumki, AQSh Xitoy munosabatlarining asosiy prinsipi-bu AQShning Xitoy yagonaligini tan olishidadir.

*Bog'lovchidan so'ng ikki nuqtaning ishlatilishi*³⁴

中国共产党在新的历史时期的总任务是：团结全国各族人民，自力更生，艰苦奋斗，逐步实现工业、农业、国防和科学，技术现代化，把我国建设成为高度文明、高度民主的社会主义国家³⁵。

Zhong guo gong chan dan zai xin de li shi shi qi de zong ren wu shi: tuan jie quan guo ge zu ren min, zi li gen sheng, jian ku fen dou, mian bu shi xian gong ye, nong ye, guo fang he ke xue, ji shu xian dai hua, ba wo guo jian she cheng wei gao du wen ming, gao du min zhu de she hui zhu yi guo jia.

Yangi asr bo'sag'asida Xitoy kompartiyasining asosiy masalalari quyidagilardan iborat:

Davlatning butun millatlarini birlashtirish, o'z kuchiga ishonish, qiyinchiliklardan o'tib kurash olib borish, qadamba-qadam ishlab chiqarish, qishloq xo'jalik modernizatsiyasini amalga oshirish, mudofaa, ilm va texnikani rivojlantirish, mamlakatni yuqori darajali demokratik madaniyatli va sotsialistik mamlakatga aylantirishdir.

III bob boyicha xulosa

Uchinchi bob bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarishimiz mumkin:

1. Rasmiy va verbal notalar misolida keng uchraydigan sinonim-fe'llar :

进行 *jinxing* , 实行 *shixing* , 执行 *zhixing* fe'llari ko'proq verbal va rasmiy notalarda ko'p uchrashi kuzatildi. Aksincha, 行使 *xingshi* , 实施 *shishi* , 施行

³⁴ Никитина Т.Н. Грамматика китайского публицистического текста.: "Санкт-Петербург", 2007.-120стр.

³⁵ 中国新闻周刊 *zhong guo xin wen kan*. 2009 年 11 月 9 号. 5 页。

shixing ko'proq kommunike, memorandum va rahbarlarning tost matnlarida uchraydi.

2. Yuqoridagi fe'llar umumiy ma'no jihatdan bir xil bo'lsa ham ma'noviy darajasiga ko'ra farqlanadi.

3. Ushbu fe'llarni bir xil to'ldiruvchi bilan ham qo'llasa bo'ladi, lekin ma'noviy jihatdan farqi katta bo'ladi.

4. Har bir fe'lni qo'llaniladigan sohasiga qarab qo'llash kerak. Albatta tarjima jarayonida ham matn yozilgan sohadan kelib chiqish kerak. Shundagina tarjima ravon chiqadi.

5. Bir turdagi elementlarni ajratishda maxsus "chapacha" vergul ishlatiladi. Ammo ba'zi holatlarda bir turdagi elementlarni oddiy vergul bilan ham ajratishadi. Ayniqsa bir turdagi elementlar kesim ishtirok etgan qurilmalar tarkibida bo'lsa;

6. 对 *dui* , 对于 *dui yu* so'zlari bir turdagi to'ldiruvchilarni vergul bilan ajratadi;

7. Fe'l-kesim yoki bog'lovchi ishlatilgan gapda, ikki yoki bir elementli qurilma bo'lishi mumkin. Ushbu holda, ega kesimdan vergul orqali ajratiladi;

8. Agar qurilmada to'ldiruvchi ajratilsa, unda vergul bog'lovchidan so'ng ishlatiladi.

XULOSALAR

«Til - inson tafakkurini va aqlini ifoda etuvchi eng go'zal va eng oliy darajadagi ko'zgudir», degan edi Leybnis³⁶. Binobarin, tilni o'rganish va uni

³⁶ Naom Chomsky. Knowledge of Language: Its Nature, Origin, and Use. Praeger Pub. 1985. P.1.

tadqiq etish bir necha ming yillik chuqur va boy tarixga ega.³⁷ Til jamiyat xayoti bilan bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani uchun u bilan birga doimo hamnafas bo‘lib, jamiyat bilan birga rivojlanadi. Muayyan tarixiy davrda tilda qo‘llanilgan so‘zlar bir mamlakatning madaniy, siyosiy, ilmiy va ijtimoiy ahvolidan tarakkiyoti mobaynida “eskirib”, tildagi so‘zlarning bir qismi butunlay iste’moldan chiqishi mumkin. Shu bilan birga bir til boshqa til yoki tillar ta’siri natijasida yangi so‘zlar, atamalar bilan muttasil boyib, rivojlanishi mumkin.

Bevosita ShHT hujjatlari sohasidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ushbu tashkilot hujjatlari hozirgi zamon rasmiy xitoy tili soxasi leksikasining shakllanish jarayoni kabi uzoq va murakkab. “Rasmiy leksika” deganda muallif o‘z ichiga rasmiy til atamaları, so‘z birikmalari, semantik komponentlar va qolipli birikmalarni nazarda tutadi va shu bilan mazkur tadqiqot chegarasini belgilaydi.

Hozirgi zamon rasmiy xitoy tili sohasining leksik qatlami tilning rivojlanish qonun - qoidalariga mos ravishda rivojlanib bormoqda. Demak, ushbu til sohasining leksik qatlamida davrni ifoda etuvchi yangi ma’noli so‘zlar, atamalar, qolipli birikmalar, o‘zlashmalarning soni ko‘payib borishi bilan bir qatorda, o‘z dolzarbligini asta - sekin yo‘qotib borayotgan atamalarning ishlatilishi ham nisbatan cheklanib bormoqda. Bundan tashqari, rasmiy xitoy tili sohasi leksikasining rivojiga ham lingvistik ham intra va ekstralingvistik faktorlar ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy ish yakunida quyidagi asosiy hulosalarni keltirish mumkin:

1.Hujjatlar turlari bo'yicha xilma-xil va miqdoran juda ko'pdir. Hujjatlarning maqsadi, yo'nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatleri ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga qo'yiladigan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar oldiga qo'yiladigan ko'pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o'ziga xos lisoniy xususiyat va sifatlar bilan

³⁷ Кайд этилган манба. 26.

belgilanadi. Bu xususiyat va sifatlarni har taraflama va chuqur tasavvur qilmasdan turib, mukammal hujjatchilikni yaratish mumkin emas.

2.Rasmiy hujjatlarda zaruriy qismlarning joylashishidagi qat'iy ketma-ketlik hujjatning huquqiy kuchini ta'minlash, hujjatni zudlik bilan ishlash, bajarish, undan osonlik bilan foydalanish uchun muhim. 31 ta zaruriy qismning 10 tachasi nisbatan ko'p qo'llanadi, shuning uchun ularni asosiy zaruriy qismlar deb ham yuritiladi. Ular hujjat muallifi (muassasa nomi yoki shaxsiy hujjatda imzo qo'yuvchi shaxs), hujjat turining nomi, sarlavha, hujjat oluvchi (adresat), kelishuv va rozilik belgilari, matn, tasdiqlash, imzo, muhr, ilova mavjudligi haqidagi qaydlardir.

3.Hujjat turini bilish, hujjatning tuzilish jihatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish, hujjat tarkibida birlamchi va ikkilamchi qismlarini ajrata olish va shundan kelib chiqib, tarjimada hujjatning ma'nosini aniq ifodalashga xizmat qiluvchi qismlarni tez va sifatli tarjima qilishga ko'proq vaqq sarflash- tarjima jarayonini osonlashtiruvchi omillardan biridir.

4.ShHT suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda uchraydigan klishelar nafaqat yakka o'zi, bal'ki klishe xususiyatiga ega qolipli konstruksiyalar tarkibida ham uchraydi.Ushbu hujjatlarda boshqa hujjatlarga qaraganda hissiy-bo'yoqdor so'zlardan hosil bo'lishi talab etiladi.

5.Klishe xususiyatiga ega venyan tili elementlari qo'llanilib, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, aynan ShHT suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda ham uchratish mumkin. Bu klishe xususiyatiga ega elementlar ko'pincha 4ta ieroglifdan tashkil topgan bo'ladi, undagi so'zlar ma'nosi faqat bitta yaxlit ibora orqali ifodalaydi. Bularga asosan, venyan grammatikasi asosida yasalgan siyosiy shiorlar, ba'zi bir konstruksiyalar va ko'pgina yordamchi so'zlar kiradi. Ularni tarjima qilish jarayonida esa jumlani bir butun qilib, kontekstdan kelib chiqqan holda tarjima qilish muhimdir.

6.Klishelarning vujudga kelishi muntazamlilik tendensiyasiga bog'liqdir. Klishelar so'z qo'shish usulida mavjud bo'lgan qonun-qoidalar asosida vujudga kelgan, faqat bunda klishelar tarkibidagi morfemalarning emas so'zlarning

o'zaro qo'shilishi kuzatiladi. Hozirgi kunda xitoy tili hujjatlari va publististik til leksik guruhlarida, klishelar va klishe xususiyatiga ega o'zlashmalar bilan boyib borishi kuzatilmoqda. Buni biz aynan ShHT suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlarda ham kuzatishimiz mumkin.

7. Klishe xususiyatiga ega ramkali konstruksiyalarda ko'makchi oldida kelgan asosiy so'z sifatida harakat nomi (fe'ldan yasalgan ot) kelsa, odatda bu konstruksiyalar klishe xususiyatiga ega konstruksiyalar deyiladi. Misol uchun 在下 zai...xia ramkali konstruksiyasiga ta'siri ostida so'zini qo'shsak klishe xususiyatiga ega ramkali konstruksiyasi hosil bo'ladi. Bu hodisani “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения ” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года) kitobida keltirilgan suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatda ko'rishimiz mumkin.

8. Ba'zi qolipli konstruksiyalarga ko'makchidan oldin asosiy so'z sifatida harakat nomi kelganda, ular boshqa ma'noda ham kelishi mumkin. Masalan 在.....里 konstruksiyasi joy ma'nosini ifodalaydi. Lekin bu konstruksiyaga 时间 shijian so'zi qo'shilsa, u holda vaqtni ma'nosida keladi. Shu bilan birga 在 old ko'makchisi tushirilib qoldirilishi ham kuzatiladi. Bu holatni <http://bc-sco.org>, <http://www.sectsco.org> kabi Shanxay Hamkorlik Tashkiloti internet saytlaridan olingan hujjatlarda uchratdik.

9. Ba'zida yordamchi so'zlar orqali ham klishelar yasalishi mumkin. Misol uchun 者 - substantivatori (otlashtiruvchi) qo'shilishi natijasida klishe hosil bo'ladi.

10. Shanxay Hamkorlik Tashkiloti suv-energetik resurslari masalasiga doir hujjatlar matnlarida qadimgi xitoy tilida mavjud bo'lgan inkor so'zlardan yasalgan klishelar ham bo'lib, ular asosan inkor ma'nosida kelgan. Inkor ma'nosidagi yordamchi so'zlar da polisemiya hodisasi ko'p uchrashi tarjima jarayonini qiyinlashtirishiga amaliyotda guvoh bo'lamiz.

11. Zamonaviy hujjat matnda ven'yaning eng keng tarqalgan qurilmasi

以。。。为 yǐ。。。wéi. Qadimgi xitoy tilida mazkur qurilma 以 yǐ

old qo'shimchasi majburiy va majburiy bo'lmagan to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

12. Qolipli konstruksiyalar o'z navbatida klishe xususiyatiga ega konstruksiyaga aylanishi uchun to'liq leksik ma'noli so'zlar kiritilishi kerak.

13. Rasmiy hujjatlarda (ShHTning SER masalasiga doir hujjatlari misolida) qo'llaniluvchi komponentlarning semantik tahlili amalga oshirilib, bir bo'g'inli semantik komponentlar qatorida qolipli birikma ko'rinishidagi semantik komponentlar ham nisbatan keng qo'llanilishi kuzatildi. Semantik komponentlarning qo'llanilishida sinonimiya hodisasining ham nisbatan keng qo'llanilishi ko'p misollarda kuzatildi. Ma'lum bir semantik komponent turli so'zlar bilan birikib bir vaqtning o'zida bir necha ma'nolarni ifodalashi hujjatlarni tarjima qilish jarayonida bir – oz qiyinchiliklarni vujudga keltirishi mumkin.

14. Xitoy tilida yozilgan hujjat tarkibida bir nechta semantik komponentlarning qo'llanilishi kuzatilib, ular hujjatga tantanavorlikni va ekspressivizmni bag'ishlashi kuzatiladi. Semantik komponentlarni noo'rin ishlatilishi hujjatning mazmunini tubdan o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin, shu sababli ushbu komponentlarni o'rganish o'z navbatida hujjatlarni tarjima qilishda ba'zi kamchiliklarning olini olishga yordam beradi.

15. Rasmiy hujjatlarda qo'llaniluvchi asosiy protokol formulalari uch guruhga bo'lingan holda tahlil etildi. Ular quyidagilar:

1) murojaat so'zlari; 2) hurmat ma'nosidagi so'zlar; 3) koplimentar leksika.

Protokol formulalarining har bir turi tahlili natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi:

15.1. Rasmiy hujjatlarda qo'llaniluvchi murojaat so'zlarning turi har xil bo'lib, har bir turi o'z ma'nosiga, o'z qo'llanilish doirasiga ega. Ma'lum bir murojaat so'zining noo'rin qo'llanilishi suhbatdoshlar o'rtasida katta

tushunmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin. M: yuqori mansabdagi rasmiy insonlarga nisbatan quyi mansab egalariga qo'llaniluvchi murofqqat shakllarini qo'llash salbiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin.

15.2. Hurmat ma'nosidagi so'z ko'pincha murojaat so'zlar bilan birga qo'llanilib, turli toifadagi insonlarga nisbatan turli xil hurmat ma'nosidagi so'zlarning qo'llanilishi kuzatildi.

15.3. Komplimentar "seremonial" so'zlar deb ham yuritiluvchi hujjatlarning yakuniy qismida qo'llaniluvchi xushomad so'zlar ikki turga bo'linadi:

- a) rasmiy hujjatning boshlanish qismida yoziladigan salomlashuv so'zlari;
- b) rasmiy hujjat yakunida, imzodan oldin yoziladigan hurmat – ehtirom ma'nosidagi xushomad so'zlar.

Birinchi guruhdagi xushomad so'zlar tarkibida bir necha turg'un xushomad ma'nosidagi iboralarning qo'llanilishi kuzatildi.

16. Rasmiy hujjatsozlik sohasida qolipli birikmalarning vujudga kelishi muntazamlik tendensiyasiga bog'liq. Qolipli birikmalar tarkibidagi so'zlar o'zaro qo'shilishi kuzatildi (morfemalarning emas). Tinchlik uchun kurash, resurslardan oqilona foydalanish, davlatlar o'rtasida aloqalarni rivojlantirish mavzulari hujjatlar leksikasini yangi ma'noli so'zlar, qolipli birikmalar bilan boyishiga sabab bo'lmoqda. Rasmiy hujjatlarda doimiy tipdagi matn mavjudligi bois, ularda tayyor qolipli birikmalar – klishe'larning ishlatilishi ko'p uchrashi misollar yordamida aniqlandi.

17. Qolipli birikmalarning ishlatilishi asosan rasmiy hujjatlarning ikki tomonlama bitimlar turining kirish qismida ko'proq qo'llanilishini kuzatish mumkin. Bitimning asosiy qismi individual xarakterga ega bo'lganligi sababli, bu yerda qolipli birikmalarning qo'llanilishi nisbatan cheklangan. Bitimning yakuniy qismida ham odatda qolipli birikmalarning qo'llanilishi kuzatilib, ular bitimning kuchga kirish borasidagi rasmiyatchilik bilan bog'liq.

18. Xitoy tili tinish belgilari qatorida o'zbek tili tinish belgilaridan farqli ravishda "chappa" vergulning mavjudligi kuzatiladi. Tarjima jarayonida tinish

belgilariga ahamiyat bermaslik, ushbu masalaga yuzaki yondashish turli hatoliklarga, tarjima jarayonida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

19. Xitoy va o'zbek tillarida yaratilgan sohaviy atamalariga, umuman tilshunosligiga oid kitoblar, qo'llanmalar, lug'atlar yetishmovchiligi, yurtimiz tarjimonlari uchun bir oz qiyinchilik tug'dirishi turgan gap. Hozirgi zamon rasmiy hujjatlarni xitoy tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda kerakli bo'lgan ekvivalent atamalarining yetishmovchiligi, yoki boshqacha qilib aytganda leksik lagunalarning borligi yana boshqa - bir qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu esa xitoy tili atamalarining hozirgi zamon o'zbek tilidagi to'liq ekvivalentlarini topish, ularni o'rganish va alohida bir lug'at tuzish masalasi haqida ham o'ylash lozimligini ko'rsatadi. Bunday lug'at yoki qo'llanma xitoy tilida imzolanishga tayyorlanayotgan hujjatlarni o'zbek tilshunoslari tomonidan tahlil etilishi va ilmiy ekspertizasining yo'lga qo'yilishini taqozo etadi. Bu esa albatta, muhim rasmiy hujjatlarda, Shartnoma va Ahdnomalarda, Deklaratsiya va Konvensiyalarda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga yetkazilishi mumkin bo'lgan tahdid va zararlarini oldini olish uchun xizmat qilishi muqarrar.

Mazkur ilmiy tadqiqot ish nafaqat xitoyshunoslik, tarjimashunoslik masalalari doirasidagi tahliliy ishlarida, balki hozirgi zamon xitoy tili leksikologiyasi, xalqaro siyosat va xalqaro iqtisodiyot sohalarida olib boriladigan izlanishlarda, shu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarning yozilishida yordam ko'rsatadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.- Toshkent, ""O'zbekiston", 1995.B.234.
2. ЗАКОН РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН О ВОДЕ И ВОДОПОЛЬЗОВАНИИ(*Ведомости Верховного Совета Республики*

Узбекистан, 1993 г., № 5, ст. 221; Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1997 г., № 4-5, ст. 126; 1998 г., № 9, ст. 181; 2000 г., № 7-8, ст. 217; 2001 г., № 1-2, ст. 23; 2004 г., № 1-2, ст. 18; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2007 г., № 50-51, ст. 512; 2009 г., № 52, ст. 555; 2011 г., № 1-2, ст. 1, № 36, ст. 365)6 мая 1993 г., № 837-XII

3. Соглашение между Правительством Республики Казахстан, Правительством Кыргызской Республики, Правительством Республики Таджикистан, Правительством Туркменистана и Правительством Республики Узбекистан о статусе Международного Фонда спасения Арала (МФСА) и его организаций .г. Ашгабат, 9 апреля 1999 г.
4. Заявление руководителей водохозяйственных органов республик Средней Азии и Казахстана. г. Ташкент, 12 октября 1991 г.
5. ПОСТАНОВЛЕНИЕ КАБИНЕТА МИНИСТРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ОБ УТВЕРЖДЕНИИ ПОЛОЖЕНИЯ О ПОРЯДКЕ ВОДОПОЛЬЗОВАНИЯ И ВОДОПОТРЕБЛЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. (*Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2013 г., № 12, ст. 155*)г. Ташкент, 19 марта 2013 г., № 82
6. Huang Jinqi. Waijiao wenhui wenshu jiaocheng. Xia ce. – Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 2004.- 621 б.
7. Fan Xinming. Waishishiyong wenshu daquan. - Beijing: Shijie zhishi chubanshe, 1994. 430 б.
8. “Сотрудничество стран ШОС с сфере безопасности, экономики, водно-энергетических ресурсов, коммуникации, культуры и перспектива ее расширения ” (материалы Пятого заседания Форума ШОС, Таджикистан, Душанбе, 13-14 мая 2010 года) , Душанбе Ирфон, 2011 г.
9. Никитина Т.Н. «Грамматика китайского публистического текста», Санкт-Петербург ,2007 . 222б.

- 10.Идти в ногу с веяниями времени, развивать “Шанхайский дух”.//
Избранные документы ШОС. - Пекин: Мировая литература. Т. 2. 779б
- 11.Материалы научной конференции: «Китайско – Узбекистанские
отношения: сотрудничество и развитие» - Пекин (КНР): Институт
России, Восточной Европы и Центральной Азии КАОН, 2006. 188 б.
- 12.Wang Yulin. Mingcheng youlai 1001.- Beijing, 1996.- 245 b

Boshqa yordamchi adabiyotlar:

13. Abdullayeva A.A. Leksika sferi mejdunarodnix otnosheniy (na materiale russkogo i uzbekskogo yazikov): Avtoref. dis. ... kand. filol.nauk.- Tashkent: Nasionalniy Universitet imeni Mirzo Ulugbeka, 2003.- 21b.
14. Abdullaev R.V. Sotrudnichestvo s mejdunarodnimi organizatsiyami v agrarnoy sfere // Selskoe xozyaystvo Uzbekistana. 2000. №3. S. 56-57.
15. Alefirenko N.F. Sovremennye problemi nauki o yazike. – M.: «Flinta», «Nauka», 2005. – 412 b.
16. Baranov A. N. Vvedenie v prikladnuyu lingvistiku – M.:URSS, 2003. – 358 b.
17. Bartold V.V. Raboti po istorii i filologii tyurkskix i mongolskix narodov. – M.: Vostochnaya Literatura. RAN, 2002 -755 b.
18. Bezmenova N.A., Gerasimov V. I. Nekotorie problemi teorii rechevix aktov. // Yazikovaya deyatel'nost' v aspekte lingvisticheskoy pragmatiki: Sb. obzorov. M., 1984. .146-196 b.
19. Chomsky N. New Horizons in Study of Language and Mind.- Cambridge University Press. – Cambridge, England, 2000.-239 p.
20. Chomsky N. On Nature and Language. – Beijing University Press, 2004.-179 p.
21. Compilation of Laws and Regulations Concerning Foreign Investment in China. - Intercontinental Press. Beijing, 2002.- 576 p.
22. Jerome L. Packard. The morphology of Chinese: A Linguistic and Cognitive Approach. – Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press; Cambridge University Press, 2001.- 344 b.
23. Cherrill Uinston. Muskuli mira.- M.: Eksmo, 2004.- 528 b.
24. Chjou Ixuan. Diplomatiya Kitaya. - Pekin: Mejkontinentalnoe izdatel'stvo Kitaya, 2005.- 188 b.
25. Churilina L. N. Aktualnye problemi sovremennoy lingvistiki. – M.: Flinta, Nauka. 2006. – 405 b.
- Семенов А.Л.. Лексика китайского языка. М.: «Муравей», 2000. 76 б.
26. Sodiqov Q., Inomxo'jaev R., Omonov Q. Sharq filologiyasining tugun va

- yechimlari. // ToshDSHI ilmiy – amaliy konferensiya materiallari.- T.,2005. – 244 b.
27. Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов.- М.: Наука, 1977. 167 б.
- 28.Каримов А.А. Хитой ва Жанубий – Шарқий Осиё: филология, сиёсат ва фалсафа масалалари.// ТошДШИ илмий – амалий конференция материаллари. -Т., 2006. 88 б.
- 29.Кобозева И. М. Лингвистическая семантика. – М., Эдиториал УРСС.,2000.-350 б.
- 30.Karimov A.A. Xitoy tilining asosiy grammatik birliklari.- T., 2001.- 57 b.
- 31.Kasimov A.M. Vneshnepoliticheskie orientiri Respubliki Uzbekistan T., 2000. 120 s.
- 32.Kulmamatov D.S. K istorii ofisialnix pismennix yazikov Sredney Azii XVI – XVII vv.// J. Xorijiy filologiya. Til, adabiyot, ta’lim.- 2001.- № 1.- 124 b. .
- 33.Kulmamatov D.S. Rassprosnie rechi sredeaziatskix poslov i gonsov XVII v.- M.: Byulleten Instituta vostokovedeniya RAN, 2001.- vip. № 9.- 143 b.
- 34.Kulmamatov D.S. Sredneaziatskie diplomaticheskie dokumenti i ix russkie perevodi XVII v. (Gramoti, chelobitnie).- M., 1994.- 214 b.
- 35.Kurdyumov V.A. Kurs kitayskogo yazika: teoreticheskaya grammatika.- M.: sitadel-treyd, Lada, 2005.- 573 b.
36. Koduxov V.I.Vvedenie v yazykoznanie. – M: «Prosveo‘enie», 1979. – 350 b.
37. Layonz Dj. Yazik i lingvistika. – M.: URSS, 2004. – 317 b.
38. Li Dejin, Cheng Meizhen. A Practical Chinese Grammar for Foreigners, Beijing.: Slnolingua, 2003. 741 p.
- 39.Mouratov E.N. Diplomatic Documents and Diplomatic Correspondence in English.-M.: ACT., 2001.- 219 b.
- 40.Molochkov F.F. Diplomaticheskii protokol i diplomaticheskaya praktika. - Izd.2.- M., Mejd.otnosheniya, 1979.- 225 b.
- 41.Muxitdinova X.S., Abdullayeva A.A. Rasmiy uslubning diplomatik yozishmalar turi.- T., 1997.- 115 b.

42. Nosirova.S “Xitoy tilining ijtimoiy-siyosiy va diplomatik terminologiyasi” , Toshkent , “Yangi asr avlodi”, 2011-yil.
- 43.“O’zbekistonda xitoyshunoslik:tarix,hozirgi zamon va kelajak ” ,Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari,2012. 99-103 b.
- 44.Тao Лян. Словообразовательный анализ неологизмов китайского языка периода политики «открытых дверей». - Тайюань, 2002. – 108 б.
- 45.Tetcher M. Iskustvo upravleniya gosudarstvom. Strategiya dlya menyayushegosya mira. M. Alpina Pablisher. 2003. – 502 b.
- 46.Ulaxovich V. Ye.. Mejdunarodnie organizasii.- Moskva: AST, 2005.- 397b.
- 47.Хаматова А.А..Словообразование современного китайского языка.-М.: Муравей, 2003.- 223 б.
- 48.Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari.- Samarqand, 1996.- 121 b.
- 49.Шазаманов Ш.И. Китай и внешний мир: Китайский способ решения региональных проблем // Шарқшунослик. Т., 1999. №3. С. 5-15.
- 50.Varxarovich L.V. Lingvistika v tablisax i sxemax.- Minsk: Novoe znanie, 2003. – 127 b.
- 51.Zonova T.V. Diplomatiya inostrannix gosudarstv.- Moskva: ROSSPEN, 2004.- 249 b.
- 52.Xiao Zhuangzhi. Wuzibiekesanan.- Beijing : Shehui kexue wenxian, 2004.- 250 b.
- 53.I.T.Zograf. Mongolsko–kitayskaya interferensiya. (Yazik mongolskoy kanselyarii v Kitae). – M.: «Nauka», 1984. – 140 b.
- 54.Zhang Yongquan. Shiyong E Han Han E fanyi.- Shandong, 2000- 339 b.

Lug’at va Internet sahifalar

- 55.Jin Shaozhi. Cihui.- Beijing, 1963.- 316 б.
- 56.Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.- М., 1966.- б.
- 57.Cihai. – Пекин, 1979.-2215 б.
- 58.Китайско-русский словарь. Сост. Фу Чонг.- Шанхай, 2004.- 1249 б.

59. internet saytlar <http://bc-sco.org>.
60. <http://www.sectsko.org>.
61. <http://russian.people.com.cn/31519/2575322/html>
62. <http://www.chinaembassy.uz>
63. <http://www.ncac.gov.cn>
64. <http://www.cninaview.org>

**Ilova №1. Hozirgi zamon xitoy tili diplomatik hujjatlarida keng
qo'llaniluvchi qoliqli birikmalar.**

1. Ikki davlatning hukumati va xalqlari o'rtasidagi do'stona aloqalarni
mamnunlik bilan baholab

满意地回顾了兩國政府和兩國人民之間的友好關係

Manyide huigule liang guo zhengfu he liang guo renmin zhijian de
youhao guanxi

2. Taraqqiyot va barqarorlikni qo'llab – quvvatlashga yordam berish

有助于維持繁榮與穩定

you zhuyu weichi fanrong yu wending

3. Yangi negiz asosida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi va
mustahkamlanishiga poydevor yaratish

有助于兩國關係在新的基礎上進一步鞏固和發展

Youzhuyu liangguo guanxi zai xinde jichushang jinyibu konggu he fazhan

4. Ikki davlat hukumat delegatsiyalarning o'zaro muzokaralari natijasida
quyidagilarga kelishildi

經過兩國政府代表團的會議，同意聲明如下

Jingguo liangguo zhengfu daibiaotuande huiyi, tongyi shengming ruxia

Turg'un iboralarning rasmiy hujjatlarda keng ravishda qo'llanilishini
imzolangan xitoycha – o'zbekcha bitimning kirish qismi misolida ko'rib chiqish
mumkin:

1. O‘zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi
Axdlashuvchi Tomonlar deb nomlanib,

乌兹别克斯坦共和国和中华人民共和国（以下简称“缔约双方”），

Wuzibiekésitan gongheguo he zhonghuarenmingongheguo
(yixiajiancheng “diyueshuangfang”),

2. O‘zbekiston va Xitoy xalqlari o‘rtasidagi tarixiy do‘stona
an‘analarga tayangan holda ,

基于乌中两国人民睦邻友好的历史传统，

Jiyu wuzhong liangguo renmin mulin youhaode lishi chuantong ,

3. 1992 – 2002 yillar mobaynida ikki davlat rahbarlari tomonidan
imzolangan qo‘shma bayonotlar va bayonnomalar ikki tomonlama aloqalarning
rivojida katta mohiyat kasb etishini nazarda tutib,

认为一九九二年至二零零二期间两国元首签署和通过的乌中联合
宣言和声明对发展双边关系具有重要意义，

Renwei yijiujiuernian zhi erlinglingernian qijian liangguo yuanshou
qianshu he tongguo de wuzhong lianhe xuanyan he shengming dui fazhan
shuangbian guanxi juyou zhongyao yiyi ,

3. turli sohalarda do‘stona hamkorlikning o‘rnatilishi, do‘stona
aloqalarning mustahkamlanishi ikkala davlat xalqlarining xohish – istagi bo‘lib,
tinchlik - hotirjamlik, havfsizlik va barqarorlikning Osiyo davlatlarida va butun
dunyoda o‘rnatilishiga yordam berishiga xizmat qilishiga ishonib,

坚信巩固两国间各个领域的友好，睦邻与互利合作符合两国人民的根本利益，有利于维护亚洲乃至世界的和平，安全与稳定，

Jianxin gonggu lianguojian gege lingyude youhao , mulin yu huli hezuo fuhe liangguo renminde genben liyi , youliyu weihu yazhou rengzhi shijiede heping, anquan yu wending ,

4. BMTning Ustavida hamda boshqa xalqaro shartnomalarda qayd etilgan majburiyatlarni tasdiqlagan holda,

重申各自根据“联合国宪章”及其参加的其它国际条约所承担的义务，

Zhongshen ge zi genju “lianheguo xianzhan” jiqi canjia de qita guoji tiaoyue suo chengdande yiwu,

5. ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi sifat pog‘onasiga ko‘tarishga, ikki xalq o‘rtasidagi do‘stona aloqalarni avloddan-avlodga o‘tkazishga ko‘maklashishga intilib quyidagilar to‘g‘risida o‘zaro kelishildi:³⁸

致力于将两国关系提高到崭新的水平，决心使两国人民间的友谊世代相传，兹达成协议如下。。。

zhiliyu jiang liangguo guanxi tigeodao zhanxinde shuiping, juexin shi liangguorenminjiande youyi shidai xiangchuan , zidacheng xieyiruxia...

Bundan tashqari, rasmiy hujjatlarning kirish qismida tez – tez quyidagi turg‘un ibolarning qo‘llanilishi kuzatiladi:

³⁸ ХХР ва Ўзбекистон Республикаси қўшма баёноти./ <http://russian.people.com.cn/31519/2575322.html/> 2004.

中华人民共和国与乌兹别克斯坦共和国双边关系文件汇编 1992 – 2002。 - 北京，2002。 - 26 – 31 б. (ХХР ва Ўзбекистон Республикаси ўртасида 1992 – 2002 йил мобайнида битилган икки томонлама дипломатик ҳужжатлар тўплами. – Пекин, 2002.- 26-31 б.)

1. Teng huquqlilik va o‘zaro manfaatlilik, davlatning ichki ishlariga aralashmaslik hamda suverenitetlikni o‘zaro hurmat qilish asosida o‘zaro hamkorlikning rivojlanishiga intilib³⁹

愿意在平等互利，互不干涉内政，互相尊重主权的基础上进一步发展两国之间的合作

Yuanyi zai pingdeng huli, hubuganshe neizheng, huxiang zunzhong zhuquande jichushang jinyibu fazhan liangguo zhijiande hezuo

2. Ikki davlat o‘rtasida savdo – sotiq va madaniy – ma’naviy aloqalarni rivojlantirish maqsadida⁴⁰

为了促进两国之间的通商贸易和文化交流起见

Weile cujin liangguo zhijiande tongshang maoyi he wenhua jiaoliu qijian

3. BMT Ustavidagi tamoyillar va qoidalari, shuningdek ushbu qoidalar va tamoyillarning doimiy tarzda amalga oshirilishini va qo‘llanilishini ta’minlash borasidagi bo‘lgan o‘zaro jur’atni e’tirof etgan holda⁴¹

重申彼等对联合国宪章 宗旨和原则的信念以及壁灯一贯竭力应用并实施此项宗旨和原则的决心

Zhong shenbi deng dui lianheguo xianzhang zongzhi he yuanzede xinnian yiji bideng yi guan jieli yingyong bing shishi ci xiang zongzhi[he yuanzede juexin

³⁹ ХХР ва Ўзбекистон Республикаси қўшма баёноти./ [http: russian. people. com. cn/31519/2575322.html/](http://russian.people.com.cn/31519/2575322.html/) 2004.

中华人民共和国与乌兹别克斯坦共和国双边关系文件汇编 1992 – 2002。 - 北京，2002。 - 27 页。(ХХР ва Ўзбекистон Республикаси ўртасида 1992 – 2002 йил мобайнида битилган икки томонлама дипломатик ҳужжатлар тўплами. – Пекин, 2002.- 27 б.)

⁴⁰ Кўрсатилган манба.- 28 б.

⁴¹ Кўрсатилган манба.- 27 б.

4. ushbu maqsadda ular mazkur bitimni tuzib, o‘zlarining vakillarini belgilab berdilar

为此目的，他们决定缔结 本条约，并各派全权代表如下

weici mudi, tamen jue ding dijie ben tiaoyue, bing ge pai q luanquan daibiao ruxia

5. Ikki taraf muxtor vakillari to‘liq shakl va qonun – qoidalarga mos ravishda tuzilgan o‘zaro vakolatlar almashinuvidan so‘ng quyidagilar haqida kelishdilar:⁴²

拴方全权代表互相校阅全权证书认为后，议定下列条约。。。。

Shuangfang quanquan daibiao huxiang jiaoyue quanquan zhengshu renwei huo , yiding xialie tiaoyue...

Bitimning asosiy qismi individual xarakterga ega bo‘lganligi sababli, bu yerda turg‘un iboralarining qo‘llanilishi nisbatan cheklangan.

Bitimning yakuniy qismida ham odatda turg‘un iboralar qo‘llanilishi kuzatilib, ular bitimning kuchga kirish borasidagi rasmiyatchilik bilan bog‘liq. Asosan quyidagi turg‘un iboralar ishlatilishi ko‘proq kuzatiladi:

条约需尽批准 tiaoyue xujin pizhun “bitim ratifikatsiya qilinishi kerak”;
本条约需尽速批准 ben tiaoyue xujin supizhun “mazkur bitim qisqa vaqt ichida ratifikatsiya qilinishi lozim”; 本条约自交换批准书之日生效，批准书在。。。市互换 Bentiaoyue zi jiaohuan pizhunshu zhiri shengxiao, pizhunshu zai ... shi huhuan “bitimshaxarda bo‘lib o‘tadigan ratifikatsiya hujjatlari bilan almashinuvi kunidan boshlab kuchga kiradi”; 本条约自生效之日起有效

⁴²Кўрсатилган манба.- 28 б.

期为。。。年 ben tiaoyue zi shengxiao zhiri qi you xiaoqiwei ... nian “mazkur bitim kuchga kirgan kundan boshlab ... yil mobaynida amalda bo‘ladi”; 条约正本交存于。。。档案库 tiaoyue zhengben jiaocunyu ... danganku “bitimning asl nusxasi arxivda saqlanishi uchun topshiriladi”; 经适当方式验证的本条约副本由存约国政府分送本条约个签署国和参加国政府 Jing shidang fangshi yanzhengde ben tiaoyue fuben you cunyueguo zhengfu fensong ben tiaoyue ge qianshuguo he canjiaguo zhengfu “mazkur bitimning tasdiqlangan nusxalari qonun – qoidalarga mos ravishda depozitor – hukumat tomonidan bitimni imzolanishida ishtirok etgan va bitimga qo‘shilgan davlat hukumatiga yuboriladi”; 本条约有效期为。。。年。如在期满前一年缔约一方未表示希望废除本条约时，则本条约将继续有效 5 年，并依次法顺延之 Ben tiaoyue you xiaoqiwei ... nian. Ru zai qimanqian yinian diyue yifang mo biao shi xiwang feichu ben tiaoyueshi , zeben tiaoyue jiang jixu youxiao 5 nian, bing yicifa shun yanchang “bitim . . . yil davomida amaliy kuchda ega bo‘ladi. Agar Ahdlashuvchi Tomonlardan biri muddatning tugashidan bir yil oldin bitimning bekor qilinishi to‘g‘risida xohish - irodasini bildirmasa, bitim keyingi 5 yil mobaynida o‘zgarmas tarzda kuchga ega bo‘ladi va ushbu muddat yuqoridagi qoidaga mos ravishda uzaytiriladi”; 本条约在（某时），（某地）签订，共。。。份（一式。。。份），美份均以。。。文写成，各种文体具有同等效力（同等准确）。Ben tiaoyue zai (moushi), (moudi) qianding , gong ...fen (yishi ...fen), meifenjun yi ...wen xiecheng, ge zhong wentiju you tongdeng xiaoli (tongdeng zhunque) “mazkur bitim (qaerda), (qachon) nusxada imzolanib, har bir nusxa ... tillarda yozilgan bo‘lib, ulardagi matnlar teng kuchga ega (asliga to‘g‘ri)”.

